


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLYI TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



**«XALQARO MUNOSABATLAR TARIXINING
DOLZARB MASALALARI»
MODULI BO‘YICHA
O‘QUV–USLUBIY MAJMUUA**

Toshkent 2022

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturi va o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan

Tuzuvchilar:

katta o'qituvchi A.Biykuziyev,
tarix fanlari nomzodi, dotsent
A.Toxiriyon.

Taqrizchilar:

tarix fanlari nomzodi, dotsent
O.A.Maxmudov,
tarix fanlari nomzodi, dotsent
A.G.Xolliyev.

O'quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik

Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan

(2020 yil "30" dekabrda 5/4-sonli bayonnoma)

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI	14
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	17
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	59
V. KEYSLAR BANKI.....	64
VI. MUSTAQIL TA‘LIM MAVZULARI.....	68
VII. GLOSSARIY	71
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	73

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: Modulning asosiy maqsadi Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tushunchalarining vujudga kelgan davrdan boshlab hozirgacha mavjud xalqaro diplomatik munosabatlarni boshqarish masalalarini shakllanish jarayoni, jamiyatning rivojlanishiga diplomatiyaning qo‘shgan hissasi va ahamiyatini chuqur tahlil qilishdan iborat. Xalqaro munosabatlar tarixining dolzarb masalalari tarixini o‘qitish orqasidan tinglovchilarga xalqaro diplomatik munosabatlarning rivojlanish haqidagi tasavvurlar uyg‘otiladi, Xalkaro munosabatlar insoniyat tarixining ajralmas qismi ekanligi, qadimgi diplomatiya markazlari va ularning jamiyat hayotida tutgan o‘rni ochib beriladi.

Modulning vazifalari:

- Xalqaro munosabatlar tarixining dolzarb masalalari moduli yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish, tinglovchilarni xalqaro siyosiy maydonda sodir bo‘layotgan hodisalarga munosabat bildirishni anglatish;

- Xalqaro munosabatlar tarixini dolzarb masalalarini o‘qitish bo‘yicha pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

- Xalqaro munosabatlar tarixini dolzarb masalalarini mutaxassislik fanlaridan biri sifatida, o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta‘minlash;

- Xalqaro munosabatlar tarixi sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish;

-Xalqaro munosabatlar tizimida sobir bo‘layotgan voqiya va hodisalar bilan tinglovchilarni atroflicha tanishtirish orqali tinglovchilarni komil inson sifatida shakllanishiga yordam berish

- Xalqaro munosabatlar tarixini dolzarb masalalari moduli bo‘yicha “Tarix” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta‘minlash.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

Modulni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- “Sharq Uyg‘onish davri”, G‘arb Renessansi va uning bosqichlarini;

- Xalqaro munosabatlar tarixining dolzarb muammolari fanini o‘qitishni tashkil qilishning xorijiy tajribalar;

- xalqaro munosabatlar bo‘yicha nazariyalar, ularni amalda qo‘llanilishi va zamonaviy muammolarni taxlil etishdagi nazariy — uslubiy yondashuvlar.

- so‘nggi yillarda zamonaviy xalqaro munosabatlar tarixisohasidagi yutuklar

va istiqbollar kabi masalalarni ***bilishi*** kerak.

- tarixiy jarayonlarni to'g'ri anglash, tahlil qilish va xulosalar chiqarish;
- ilmiy maqolalar tayyorlash hamda tavsiyalarini ishlab chiqish;
- ilg'or tajribalardan foydalanish;
- o'z ustida ishlab, fanning yangi tadqiqotlarini o'qitish tizimini qo'llash;
- pedagogik jarayonda muloqot uslublarini to'g'ri qo'llay olish

ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

- Xalqaro munosabatlar tarixini dolzarb masalalarini sivilizatsion taraqqiyot davomida erishgan yutuqlarini ta'lim jarayonida qo'llashning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini bilish;

- "Xalqaro munosabatlar tarixini dolzarb masalalarini" fanidan tinglovchilar har bir tarixiy davrda tarixiy tadqiqotlar ko'lami, har bir davrning o'z dolzarb muammosini tadqiqotlari va soha bo'yicha zamonaviy usullarini qo'llash ***malakalariga*** ega bo'lishi lozim

- fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish; sivilizatsiya sohasida jahon hamjamiyati tomonidan to'plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash malakalariga ega bo'lishi;

- kreativlik va ijodiylikni Xalqaro munosabatlar tarixini dolzarb masalalarini fanlarni o'qitishda qo'llana olishi;

- xalqaro munosabatlar tarixining dolzarb muammolarining, rivojlanib borish jarayonlari va dolzarb muammolari oid masalalarni tarix fanlarini o'qitishda qo'llana olish ***kompetensiyalariga*** ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

Modulni o'qitish ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

- modulni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan;

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

"Xalqaro munosabatlar tarixining dolzarb masalalari" moduli mazmuni o'quv rejadagi "Jahon mamlakatlarining fan va texnika taraqqiyoti tarixi", "Tarix fanida davlatchilik masalalari: qadimgi, o'rta asrlar, yangi va eng yangi davr" va "Jahon sivilizatsiyasi tarixining dolzarb muammolari" o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning ta'lim jarayonida bulutli hisoblash, katta ma'lumotlar va virtual reallik tizimlaridan foydalanish bo'yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim jarayonida dunyoda sodir bo'layotgan voqiya hodisalarga tarixiy jixatdan holis yondashishni o'rganadilar. Shu bilan birga qadimdan to hozirga qadar, dunyo davlatlari o'rtasida davom etayotgan xalqaro munosabatlar tizimini yoritish uslublarini bilib oladi.

Molul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Jami	jumladan		
			Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'uloti
1.	Qadimgi Sharqda xalqaro munosabatlar va diplomatiya	2	2		
2.	Qadimgi Yunonistonda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.	2	2		
3.	Xalqaro munosabatlarning asosiy masalalari. Diplomatiyaning mohiyati.	2	2		
4.	Sparta va Afina o'rtasidagi raqobat. "Antalkid" sulhi.	2	2		
5.	Korinf kongressi. Aleksandr Makedonskiyning yurishlari.	2	2		
6.	Vizantiya va "varvarlar" davlatlari. Vizantiyada xalqaro va diplomatik aloqalar shakllari.	2		2	
7.	XIX asrning oxirgi choragida xalqaro munosabatlar va diplomatiya. Rossiya-Turkiya urushi (1877-78 yy.) va Berlin kongressi.	2		2	
8.	Potsdam konferensiyalari. BMT-ning tashkil etilishi.	4		4	
9.	"Sovuq urushning" boshlanishi. NATO va Varshava shartnomasi tashkiloti.	2		2	
	Jami:	20	10	10	

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

**1-mavzu. Qadimgi Sharqda xalqaro munosabatlar va diplomatiya
(2 soat).**

- 1.1. Qadimgi Misrda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.
- 1.2. Qadimgi Mesopotamiyada xalqaro munosabatlar va diplomatiya.
- 1.3. Qadimgi Xitoyda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.

**2-mavzu. Qadimgi Yunonistonda xalqaro munosabatlar va diplomatiya
(2 soat).**

- 2.1. Afina polisi diplomatiyasi.
- 2.2. Afina va Sparta o'rtasidagi diplomatik munosabatlar.
- 2.3. Yunon-Makedon imperiyasining tashqi siyosati.
- 2.4. Ellin davlatlari diplomatiyasi.

**3-mavzu. Xalqaro munosabatlarning asosiy masalalari. Diplomatiyaning
mohiyati (2 soat).**

- 3.1. Diplomatiya va tashqi siyosat.
- 3.2. Diplomatiyada Status kuo tushunchasi.
- 3.3. Tashqi ishlar vazirligi boshqaruvi tizimi.

**4-mavzu. Sparta va Afina o'rtasidagi raqobat. "Antalkid" sulhi
(2 soat).**

- 4.1. Qadimgi Sparta diplomatiyasi.
- 4.2. Afina va Sparta polislari o'rtasidagi diplomatik munosabatlar
- 4.3. Polislar o'rtasidagi raqobat diplomatiyasi.

**5-mavzu. Korinf kongressi. Aleksandr Makedonskiyning yurishlari
(2 soat).**

- 5.1. Makedoniyaning yuksalishi.
- 5.2. Afina va Makedoniyaning diplomatik munosabatlari
- 5.3. Aleksandr Makedonskiyning tashqi siyosati.
- 5.4. Ellinizm.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot. Vizantiya va "varvarlar" davlatlari. Vizantiyada xalqaro va diplomatik aloqalar shakllari (2 soat).

2-amaliy mashg'ulot. XIX asrning oxirgi choragida xalqaro munosabatlar va diplomatiya. Rossiya-Turkiya urushi (1877-78 yy.) va Berlin kongressi (2 soat).

3-amaliy mashg'ulot. Potsdam konferensiyalari. BMT-ning tashkil etilishi. (4 soat).

4-amaliy mashg'ulot. "Sovuq urushning" boshlanishi. NATO va Varshava shartnomasi tashkiloti (2 soat).

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 sentabrdagi “Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi 792-sonli Qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 16 apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4680-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

21. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series A: Ancient. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 871 p.

22. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series B: Middle ages. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.

23. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series S: New Era. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.

24. Avery P. The Cambridge History of Iran. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 871 p.

25. Bayly S. The Cambridge History of India. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 1093 p.

26. Bose S. The New Cambridge History of Asia. – Cambridge: Cambridge University Press, 2 part. 2020. – 2062 p.

27. Brundage A. Going to the Sources: A Guide to Historical Research and Writing. – Oxford: John Wiley & Sons, 2017.

28. Bunch B., Hellemans A. The history of science and technology. – Boston – New York, 2004.

29. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: Europe. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1487 p.
30. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: Asia. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1241 p.
31. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: Africa. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 903 p.
32. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: North and South America. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1084 p.
33. Collins R. The Arab Conquest of Spain, 710–797. – Oxford: Blackwell Publishing, 2018.
34. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
35. Grant E. A Source Book in Medieval Science. – Cambridge: Harvard University Press, 2016. – 587 p. (Reprint).
36. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publiciations. 2015. 183.
37. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publiciations. 2015. 191.
38. Haskins C. H. Studies in the History of Mediaeval Science. – New York: Frederick Ungar Publishing, 2019. (Reprint).
39. Haskins C. H. The Renaissance of the Twelfth Century. – Cambridge: Harvard University Press, 2018. (Reprint).
40. Huntington S.P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon and Schuster, 2017. – 358 p.
41. Mahmudov O. The beginning of the European renaissance // International Journal of Research and Development. 2020. – Vol. 5 (7). Pp. 104-108. DOI: <https://doi.org/10.36713/epra4787>
42. Makhmudov O.V. The Toledo School – early center of investigation of the works Central Asian scholars in the Europe. – Saarbrucken: Lambert Academic Publishing, 2017. – p. 193.
43. Roberts J.M., Westad O.A. The History of the World. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1260 p.
44. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 1. From Homer to Omar Khayyam. – Oxford: John Wiley & Sons, 2019. (Reprint).
45. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 2. From Rabbi ben Ezra to Roger Bacon, Parts I-II. – Baltimore: Carnegie Institution of Washington, 2020. (Reprint).
46. Starr F. Lost Enlightenment: Central Asia's Golden Age from the Arab Conquest to Tamerlane. – Princeton: Princeton University Press, 2015.
47. Thorndike L. A. History of magic and experimental Science. – New York: Columbia University Press, 2019. – 835 p. (Reprint).
48. Watt W. M. The influence of Islam on medieval Europe. (Islamic Surveys 9). – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2020. (Reprint).
49. Aydin Arifogli A. Xroniki musulmanskix gosudarstv I – VII vekov xidjri. – Moskva: Umma, 2018. – 448 s.
50. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. T. I. Istoriya i

istoricheskoye soznaniye. – T.: Uzbekiston, 2008.

51. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

52. Bolshakov O. G. Istoriya Xalifata. – T. 4. Apogey i padeniye arabskogo Xalifata. – Moskva: Vostochnaya literatura, 2018. – 368 s.

53. Gabrielyan S. I. Istoriya stran Azii i Afriki v novoye vremya. – Tashkent, 2012.

54. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.

55. Yevropa mamlakalari va AQSH 1640–1918 yillarda. / A.Xolliyev tahriri ostida. – Toshkent: Universitet, 2010.

56. Ibraymov A.YE. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/ tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: "Lesson press", 2020. 112 bet.

57. Istoriya noveyshego vremeni stran Yevropi i Ameriki v 1918 – 1945 gg. / pod red. N.A.Rodriges. – Moskva, 2014.

58. Istoriya noveyshego vremeni stran Yevropi i Ameriki v 1945 – 2000 gg. / pod red. YE.Yazikova. – Moskva: Nauka, 2015.

59. Istoriya noveyshego vremeni stran Yevropi i Ameriki v 1945 – 2000 gg. II chast / pod red. N.A.Rodriges. – Moskva: Nauka, 2014.

60. Istoriya srednix vekov. / pod red. S.P.Karpova. – 1-2 ch. – Moskva: MGU, 2018.

61. Ishmuhammedov R.J., M.Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

62. Yeger O. Vsemirnoy istorii. Tom 1. Drevniy mir. – M.: Directmedia, 2020. – 1044 s.

63. Yeger O. Vsemirnoy istorii. Tom 2. Sredniye veka. – M.: Directmedia, 2020. – 905 s.

64. Yeger O. Vsemirnoy istorii. Tom 3. Novaya istoriya. – M.: Directmedia, 2020. – 809 s.

65. Yeger O. Vsemirnoy istorii. Tom 4. Noveyshaya istoriya. – M.: Directmedia, 2020. – 878 s.

66. Kazakova V.N. Istoriya srednix vekov. – Moskva: Litres, 2018.

67. Luchenkova YE., Myadel A. Istoriya nauki i texniki. – M.: Litres, 2017. – 431 s.

68. Mommzen T. Istoriya Rima. – M.: Litres, 2020. – 591 s.

69. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 208 b.

70. Nemirovskiy A., Nikishin V., Ladinin I., Novikov S. Istoriya drevnego mira. Vostok, Gretsiya, Rim. – M.: Litres, 2020. – 786 s.

71. Problemi istorii i mejdissiplinarnogo sinteza. – M.: Litres, 2019. – 561 s.

72. Rtveladze E.V. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana. – Toshkent: Uzbekistan, 2009.

73. Rusina Y.A. Metodologiya istochnikovedeniY. – Yekaterinburg, 2015.
74. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
75. Xannikov A. Texnika: ot drevnosti do nashix dneyn. – M.: Litres, 2020. – 384 s.
76. Sheypak A. Istoriya nauki i texniki. – M.: Litres, 2020. – 513 s.


IV. Internet saytlar

77. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: www.edu.uz.
78. Bosh ilmiy-metodik markaz: www.bimm.uz
79. [www. Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
80. Otkritoye obrazovaniye. <https://openedu.ru/>
81. <https://www.ucl.ac.uk/ioe/courses/graduate-taught/mathematics-education-ma>
82. <https://www.onlinestudies.com/Courses/Mathematics/Europe/>
83. <https://online-learning.harvard.edu/catalog?keywords=mathematics&op=Search>
84. <https://www.msu.ru/en/projects/proekt-vernadskiy/news/math-teachers-advanced-training.html>
85. <https://english.spbu.ru/education/graduate/master-in-english/90-program-master/2455-advanced-mathematics>

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida “Davra suhbat” metodining tuzilmasi keltirilgan



Xulosalash (Rezyume, Yelpig‘ich) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli harakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari,

fikrlarini yozma va ogʻzaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashgʻulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashgʻulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-oʻqituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur boʻlgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh oʻziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, oʻz mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema boʻyicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar oʻz taqdimotlarini oʻtkazadilar. Shundan soʻng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlari bilan toʻldiriladi va mavzu yakunlanadi.

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni oʻzlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashgʻulotlarida, mustahkamlashda, oʻtilgan mavzuni soʻrashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashgʻulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid boʻlgan yakuniy xulosa yoki gʻoya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qogʻozlarni tarqatiladi;

Ф	• фикрингизни баён этинг
С	• фикрингизни баёнига сабаб кўрсатинг
М	• кўрсатган сабабингизни исботлаб мисол келтиринг
У	• фикрингизни умумлаштиринг

- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhi

- й tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Namuna.

Fikr: "Zamonaviy geosiyosatning dolzarb muammolari qanday masalalarni yoritadi?"

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-mavzu: Qadimgi Sharqda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.

REJA:

- 1.1. *Qadimgi Misrda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.*
- 1.2. *Qadimgi Mesopotamiyada xalqaro munosabatlar va diplomatiya.*
- 1.3. *Qadimgi Xitoyda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.*

Tayanch iboralar: *Nom, Yuqori Misr, Tamkarlar, Chati, Iuntiu, Sherdane, Ishyakumma, Kupanta Inares. Xalqaro munosabatlar tushunchasi tahlili. Siyosiy kuchlar muvozanati o'rtasidagi yagona madaniyat masalalari, o'ziga xoslik, xilma-xillikning o'zaro bog'liqligi.*

1.1. Geosiyosat tushunchasi.

Miloddan avvalgi III - II ming yilliklardagi Mesopotamiyaning tashqi siyosiy tarixi, birinchi galda, Mesopotamiya ichkarisida mavjud bo'lgan davlatlar o'rtasidagi munosabatlar tarixidir. Yozuv oldi davrining oxiri va ilk sulolalar davrining boshida Mesopotamiyada yigirmaga yaqin "nom" turdagi shahar - davlatlar mavjud edi. Mesopotamiyada gegemonlik qilishga qaratilgan da'volar dastavval "Kish podshosi" unvoniga ega bo'lish bilan bog'liq bo'lgandi. "Kish lugali" unvoni podsho - gegemonning an'anaviy unvoni bo'lib qoldi.

Mesopotamiyaning tashqi aloqalari asosan sharq tomon qaratilgan edi. Miloddan avvalgi IV ming. yillikda Mesopotamiya Eronning yassi tog'lik hududlari bilan jadal savdo aloqalariga ega bo'lgan.

Miloddan avvalgi III ming yillikda Mesopotamiyaga keltirilgan mahsulotlarning aksariyat qismi aynan savdo orqali ta'minlanardi. Bu esa tabiiyki, savdo almashuvining yo'lga qo'yilgan tartibini nazarda tutadi. Qolaversa, savdo karvonlarining erkin qatnovini ta'minlovchi o'zaro kafolatlar ham mavjud bo'lishi kerak edi.

Kish hukmdori Menbaragessi (mil. avv. 2600 y.) ishtrokidagi bizga ma'lum bo'lgan harbiy to'qnashuvlardan eng qadimgisi Elam bilan bog'liq edi. Elam keyingi asrlar davomida Mesopotamiya davlatlarining eng xavfli dushmani bo'lib keldi. Mesopotamiya aynan shu paytda to'xtovsiz harbiy to'qnashuvlar davriga kirib borgandi. Kish hukmdorlaridan tashqari, Ura, Uruka, Lagash hukmdorlari ham o'zlarini "Kish podshosi" deb nomlay boshladilar. Akkad sulolalariga tegishli bo'lgan shohlar keyinchalik ushbu unvonni o'zlarining unvonlari qatoriga kiritdilar. Ikki yirik "nom"lar - Lagesh va Umma o'rtasida ikki asrdan ko'proq vaqt davomida cho'zilgan to'qnashuvni, hamda "Kish podshosi" Mesilimning ushbu nizoda

o‘ynagan rolini yoritib beradigan bir qator matnlar bizgacha yetib kelgan. Bu yerdagi voqealar “ikki darajada” ro‘y berdi: Enlil (Shumerning oliy xudosi) Ningursu (Lagashga homiylik qilgan xudo) va Shara (Umma shahriga homiylik qilgan xudo) o‘rtasida chegara o‘rnatdi, ya’ni ular o‘rtasidagi nizoni hal etdi. “Nom” lar o‘rtasidagi to‘qnashuv shunday qilib, ushbu “nom”- larning iloxlari o‘rtasidagi nizo sifatida ifodalanadi va xudolar orasida hal etiladi. Demak, bizga ma’lum bo‘lgan eng qadimgi kelishuvlardan birida zamonaviy xalqaro - huquqiy amaliyotning ko‘plab elementlarini ko‘rishimiz mumkin: aniq belgilangan yerlarga egalik qilish da’volari negizida yuzaga kelgan nizo, xakamlar sudi, janjalda ishtrok etgan birinchi tomonning talash bo‘lib turgan yerlar ustidan suverenitetining tan olinishi, hamda shu paytning o‘zida ikkinchi tomonga ushbu yerlarni ijaraga topshirilishi. To‘qnashuv, gox pasayib, gox avj olib, Umma hukmdori Lugal zagesi Lagashni hal qiluvchi mag‘lubiyatga uchratmaguncha (tax. Mil. avv. 2312 y.) davom etdi. Lugalzagesi hech qanday istilochilik maqsadlarga ega bo‘lmaganligiga inontirardi va faqat “adolatni” tiklaganligini ta’kidlaydi.

Shu tarzda Mesopotamiya davlatlari o‘rtasidagi eng qadimgi va yaxshi hujjatlashtirilgan to‘qnashuvlardan biri yakunlandi. Bo‘lib o‘tgan voqealarning ko‘plari, hamda to‘qnashuv haqidagi rasmiy xabarlarining frazeologiyasi (barqaror so‘z birikmalari va iboralar) uch - to‘rt ming yildan so‘ng ro‘y bergan jarayonlarni xayron qolarli darajada eslatadi.

Mamlakatni birlashtirishga qaratilgan tendensiya haqida “Mamlakat lugali” deb nomlangan yangi unvonning paydo bo‘lishi dalolat beradi. Miloddan avvalgi III - II ming yilliklarda markazdan qochirma kuchlar markazga intilma kuchlardan qudratliroq ediki, buning oqibatida siyosiy tarqoqlik holati o‘sha davrdagi Mesopotamiya uchun xos edi.

Butun Mesopotamiya hududlarini o‘z ichida qamrab olgan davlatni birinchi bor Sargon barpo etdi. Ushbu davlat o‘zining ichki tuzilishi jihatidan ham konfederasiya, ham markazlashgan davlatni eslatadigan ko‘rinish kasb etgandi. Sargon tomonidan barpo etilgan davlat Osiyodagi birinchi “buyuk” davlat edi, Yaqin Sharqda esa - ikkinchi (Misrdan so‘ng) Old Osiyodagi xalqaro vaziyat shahar - davlatlar va ularga to‘g‘ridan - to‘g‘ri tahdid solgan “buyuk” davlat o‘rtasidagi qarama - qarshilik bilan ifodalanadi. Sharq (Elam) va g‘arbga (Suriya) qaratilgan yurishlar endi Mesopotamiya hukmdorlari uchun an’anaviy tusga kirdi. “To‘rt iqlim podshosi” Naram - Sin va elamliklar hukmdori Xit o‘rtasidagi bizga ma’lum bo‘lgan birinchi xalqaro shartnoma Elam zamonidan hozirgi kungacha yetib kelgan. Ushbu shartnomaga ko‘ra Elam podshosining majburiyatlari quyidagilardan iborat edi:

1. Akkadaga nisbatan to‘la loyallik (samimiyat) (Elamda Naram-Singa nisbatan g‘animlikka yo‘l qo‘ymaslik, Akkadning har qanday dushmanlariga qarshi harakatlarda unga harbiy yordam ko‘rsatish);

2. Qochoqlarni tutib berish, ya’ni Naram – Singa dushmanlik qilganlarga panox berishdan voz kechish.

Asosan Elam bilan olib borilgan urushlardan tashqari ro‘y bergan tashqi siyosiy voqealar haqida ma’lumotlar kam. Elam bilan munosabatlar yomon yoki juda yomon holatda bo‘lar edi. Shu paytgacha mutlaqo nufuzga ega bo‘lmagan Bobilning siyosiy

tartibsizlik sharoitida yuksalishi nafaqat harbiy muvaffaqiyatlar, balki maqsadga intiluvchan va o'ta ustalik bilan olib borilgan diplomatiyaning natijasi edi. Sulolaviy nikohlar to'g'risida ham ma'lumotlar uchraydi. Ittifoqlar (teng huquqli yoki tengsizmi, lekin baribir umri qisqa) ko'plab miqdorda tuzildilar. Agar ittifoq teng huquqli bo'lmasa, unda podsho - gegemon qaram podsholiklarga, ularni doimo nazorat qilish maqsadida, o'zining "maslahatchilarini" (xazianu) yuborardi. Qaram podsholar bunday ittifoqning rahbariga yuborgan maktublarida uni "ota" yoki "hukmdor" deb nomlashadi. Ularning majburiyatlari aftidan, bitimlarda aniq belgilangan va birinchi galda harbiy yordam ko'rsatishdan iborat bo'lgan. Ittifoq tuzilishi xudolar oldida qasam ichish bilan mustahkamlangan. Siyosiy maqsadlarga erishish yo'lida harbiy kuch, ayyorlik, pora berib sotib olish, isyonlarni keltirib chiqarishdan foydalanilgan. Ushbu barcha usullarni Bobil sulolasi eng muvaffaqiyatli tarzda qo'llagan.

Siyosiy maqsadlarga erishish yo'lida iqtisodiy "yordam" dan foydalanilgan holat hujjatlar negizida o'z tasdig'ini topgan tarzda birinchi marotaba tarixda Mari va Bobil o'rtasidagi munosabatlarda qayd etilgan.

Xammurapi barpo etgan davlat, garchand, u o'z bunyodkoridan keyin ko'p umr ko'rmagan bo'lsa ham, butun Mesopotamiyani va hattoki Elamning bir qismini qamrab olgandi. Aynan Xammurapi va uning vorislari davlati markazlashgan davlat deb nomlanishi mumkin.

Diplomatiyaning qadimgi Misrning siyosiy hayotida o'ynagan roli haqidagi saqlanib qolgan ma'lumotlar asosan giksoslar hukmronligi va keyingi Yangi podsholik davriga oid.

Giksoslar hukmdorlari, Misr fir'avnlari kabi, o'z hokimiyatini butun Nil vodiysiga yoyishdi. Ushbu davrda Misr siyosiy jihatdan, giksos fir'avnlari nisbatan o'z qaramligini tan olgan bir qator unchalik katta bo'lmagan egaliklardan iborat edi. Ayni o'sha paytda Misr va Osiyo mamlakatlari o'rtasida qalin iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatildi.

Nil vodiysining janubida, Fivada, o'zlarini fir'avnlari deb e'lon qilgan yuqori Misr hukmdorlarining mahalliy sulolasi yuksala boshladi. XVII sulolaga oid Fiva fir'avnlari giksoslar hukmdori Apopiga qarshi olib borgan ozodlik kurashi davrida Misrda yuzaga kelgan murakkab siyosiy vaziyat haqida bizga ma'lum bo'lgan manbalar dalolat beradi.

Ushbu kurashda diplomatik yozishmalar, elchilarni yuborish, ittifoqlar va bitimlar tuzish, hamda sulolaviy nikohlar katta rol o'ynagan. Giksoslar hukmronligi davridagi Misrning davlat tuzilishi turli shartnomalarning imzolanishi, hamda giksos hukmdorlari va ularga qaram bo'lgan mahalliy hokimlar o'rtasidagi sulolaviy nikohlarning yuzaga kelishini rag'batlantirardi.

Giksoslarga qarshi uzoq davom etgan ozodlik kurashi Fiva fir'avnlari to'la g'alabasi bilan yakunlandi. Yangi podsholik davri qadimgi Misr diplomatiyasini Al - Amarna arxivida topilgan xatlar ajoyib tarzda tasvirlab beradi. Al - Amarna arxivi - mil. avv. XIV asrga oid tarixiy matnlarning noyob majmuasidir. Al-Amarna arxivining deyarli barcha sopol lavhalarida diplomatik tuzdagi xatlar qayd etilgan. Ushbu xatlar Amenxotep III va Amenxotep IV saroyiga Bobil, Mitanni, Ossuriya,

Xetlar podsholigi, Arsava mamlakati, Kipr oroli, hamda Misr tomonidan bo'ysundirilgan Falastin, Suriya, Finikiya shahar - davlatlari hukmdorlaridan yetib kelgan. Ushbu tarixiy davrda Misr Yaqin Sharqning eng qudratli davlatlaridan biri edi. Dastavval faqat Mitanni va kassitlar Bobilni unga teng keladigan davlatlar edi. Amenxotep IV hukmronligi davrida esa Kichik Osiyoda Xetlar podsholigi anchagina kuchaydi.

Ushbu davrda Misrning Osiyodagi egaliklari Amuru, Upe va Xanaan deb nom olgan yirik hududiy qismlardan - "viloyat" lardan iborat edi va misrlik noiblar tomonidan boshqarilardi. Old Osiyoda Misr hokimiyati ostidagi yerlarni idora qilishga taaluqli masalalar bilan podshoning "Fir'avn maktublari uyi" nomli maxsus muassasasi shug'ullangan. "Fir'avn maktublari uyi" - ga rahbarlik qilgan amaldor juda katta ta'sirga ega bo'lgan. Ushbu shaxs Misrning Old Osiyodagi egaliklarni boshqarishga oid barcha masalalar bo'yicha fir'avnning maslahatchisi edi.

Misrliklar, odatda, zabt etilgan Old Osiyo viloyatlarining an'anaviy siyosiy tuzilishini o'zgartirmaganlar. Fir'avn va Misrga qaram bo'lgan Falastin va Suriya xumdorlari o'rtasidagi yozishmalarda murojaat qilishning ma'lum qoidalariga rioya qilingan. Teng huquqli va do'stona munosabatlarda bo'lgan podsholar bir - birovlarini "birodar" deya atashgan. Qudrat jihatdan ustunroq yoki yoshi kattaroq hukmdorga "ota" deb murojaat qilishgan, o'zini esa "o'g'il" deya atashgan. Qaram hokimlar yuborgan xatlarda fir'avnni "hukmdor (yoki sulton, janob)", o'zlarini "qul", "qarol (xizmatkor)" deyu nomlashgan. Olqishlash, tabriklash va aloqa qilishning ma'lum shakllari mavjud bo'lgan. Qaram hokimlar o'zlarining tayinlanishi chog'ida, hamda Misrda yangi hukmdorning hukmronligi boshlanganda maxsus formula bo'yicha sodiqlik qasamini ichishi lozim edi. Garovga olish mahalliy hokimlarni itoatkorlik holatida saqlab kelishga va bo'ysundirilgan yerlarda Misrning ta'sirini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim vosita edi.

Xatti mamlakatining tashqi siyosatida sulolaviy nikohlar muhim o'rin egallagan. Xett podsholarining qizlariga bosh xotin, ya'ni mamlakat malikasi maqomini kafolotlovchi shartlar ilgari surilardi. Xetlarning sulolaviy nikohlariga oid konsepsiyasi aynan shunda o'z ifodasini topgan.

Xett podsholigining tashqi siyosatida elchilar, vakillar, choparlar va boshqalar muhim rol o'ynagan. Xett an'alarida diplomatik elchilik vazifasini ado etuvchi mansabdor shaxs, "aso odami" (gerold) unvoniga ega bo'lgan inson uchraydi. Ushbu daraja elchi va vakil darajasidan yuqori hisoblangan, chunki "aso odami" unvoniga ko'p xollarda podsho urug'iga a'zo bo'lgan amaldorlar ega edi.

Hukmdorlarning diplomatik munosabatlarida mirzalar (kotiblar) muhim rol o'ynagan. Aynan ular nafaqat o'z hukmdorining ko'rsatmalariga, balki, birinchi galda xetlarning o'zida shakllangan mezonlarga tayanib, shartnomalar va xatlarning matnlarini tayyorlashgan.

Xett jamiyatining talabalaridan kelib chiqib, mirzalar bir necha tillarni bilishlari lozim edi. Bunga ularni maxsus mirzalik maktablarida o'rgatishgan.

Miloddan avvalgi I ming yillikda Yaqin Sharq mamlakatlarida iqtisodiy yuksalish ro'y berdi. Davlatlar o'rtasida doimiy, va birinchi galda savdo aloqalar,

shuningdek, siyosiy, diplomatik va madaniy munosabatlar yoʻlga qoʻyildi. Mintaqa esa ushbu davrda toʻxtovsiz urushlar maydoniga aylanib bordi.

Yaqin Sharq xaritasi va undagi kuchlarning oʻzaro nisbati tubdan oʻzgardi. Allaqachonlar kuchli boʻlgan davlatlardan (Xett podsholigi, Mitanni) faqatgina parchalar qoldi-ki, ularni boshqa qudratliroq davlatlar asta - sekin yutib yubordi. Ikkinchilari saqlanib qolgan boʻlsa ham, biroq ichki va tashqi siyosiy tanazzulni boshidan kechirayotgan edilar. Buning natijasida, ular qachonlardir jahon siyosatida oʻynagan yetakchilik rolini boshqa davlatlarga, ayniqsa Ossuriyaga topshirib qoʻyishdi. Miloddan avvalgi I ming yillikda oʻsha davr koʻlamlariga koʻra “jahon” gegemoniyasi uchun ulkan qamrovli kurash olib borildi-ki, unda eng qudratli davlatlar gʻolib chiqishdi. Bu esa, oʻz navbatida, dastlabki “imperiyalar”ning, yirik harbiy - siyosiy birlashmalarining, oʻziga xos “jahon” miqyosidagi saltanatlarning barpo etilishiga olib keldi.

Bundan avvalgi davrlardayoq Ossuriya Yaqin Sharq davlatlari orasida asta - sekin yuksalib bordi. Miloddan avvalgi IX asrda Ossuriyaning tashqi siyosati toʻrt yoʻnalish (shimoliy, janubiy, sharqiy va gʻarbiy) boʻyicha rivojlandi. Yaqin Sharqda Ossuriya davlatining mavjud boʻlguncha, bir tomondan uzluksiz tarzda harbiy - siyosiy ittifoqlar tashkil etilardi, ikkinchi tomondan, esa - Ossuriya ushbu ittifoqlarning tarqab ketishi uchun barcha harakatlarni qilardi va ularni birma - bir boʻysundirishga intilardi.

Miloddan avvalgi VIII asrning birinchi yarmi Ossuriya uchun chuqur inqiroz va tushkunlik davri boʻldi. Inqiroz holati Ossuriyaning xalqaro mavqeiga ham salbiy taʼsir koʻrsatdi. Ossuriya davlatining tashqi siyosiy qudrati mil. avv. VIII asrning ikkinchi yarmida, hokimiyat tepasiga Tiglatpalasar III (mil. avv. 745 - 727 yy.) kelganda tiklandi. Tiglatpalasar III zamonida asosiy eʼtibor yana gʻarb mamlakatlariga qaratildi. Janubda ham unga omad kulib boqdi. Bobil uchun ossuriyaliklarga qarshi kurash olib borgan haldey qabilalari ustidan gʻalaba qozonildi. Tiglatpalasarning oʻzi Pulu nomi bilan Bobilda toj kiygan. Bu orqali Ossuriya maʼlum darajada moyil siyosat va diplomatiyaga ega ekanligini namoyish qildi, chunki Bobilga maxsus maqom berildi.

Ish yuritish Ossuriya davlatida ikki tilda olib borilardi: akkad tilining ossuriya shevasida va aramey tilida. Diplomatik tushdagi hujjatlar orasida nomalar, xatlar, “muxrli hujjatlar”, “uzuk osti” hujjatlar, oddiy “hujjatlar” (“tablichkalar” - sopol parchalari), maxfiy maktublar, maʼlumotlar va boshqalar tilga olinadi. Muzokaralarda turli darajadagi omilkor va eʼtiborli kishilar qatnashgan.

Davlat nomidan muzokaralarni podsholar, shaxzodalar, taxt vorislari, podsho amaldorlari: abarakku, rabshaku va boshq, elchilar, choparlar (“mar shipri”) olib borishgan, sarkardalar va aholi istiqomat qiladigan joylarning boshliqlari ham uchraydi. Ossuriya razvedka (josuslik) xizmatining juda katta va koʻp tarmoqli apparatiga ega edi. Razvedka (josuslik) masalalari bilan odatda shaxzoda - taxt vorisi shugʻullanardi.

Ashshurbanapal ham, taxt vorisi deb eʼlon qilingandan soʻng razvedka (josuslik) masalalari bilan faol shugʻullandi. Ashshurbanapalning podsholik davrida esa razvedka (josuslik) Ossuriya tashqi siyosatining ehtiyojlarini qondirish yoʻlida

g'ayrat bilan ishlardi. Ossuriya diplomatiyasining harakatlari hamkor - davlatlarning ichki ziddiyatlarini, ushbu davlatlar tarkibidagi turli viloyatlarning va ayniqsa qabilalarning separatizmini, ularning boshqa davlatlar bilan qarama - qarshiligini hisobga olgan holda amalga oshirilardi. Bularning barchasi haqidagi ma'lumotlarni Ossuriya ma'muriyatiga, shu jumladan diplomatiya xizmatiga, razvedka (josuslik) yetkazib berardi.

Manbalarning o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi Qadimgi Hindiston tarixining har qanday yo'sinlarini o'rganishdagi eng asosiy qiyinchiliklardan biridir.

Biror - bir arxiv hujjati bizgacha yetib kelmagan, biror - bir qadimgi hind yilnomasi ma'lum emas, yozuvlar esa kam sonli va har doim ham yetarli darajada ma'lumotlarga ega emas.

Qadimgi hind tashqi siyosat nazariyasi bo'yicha asosiy manba Kautilyaning "Artxashastra"-si hisoblanadi va hozirda uning sanasi milodiy birinchi asrlar bilan belgilanadi. Ushbu asarda davlat tuzilishi, ma'muriy - xo'jalik boshqaruvi, sud ishlari, harbiy va diplomatik sa'nat bo'yicha ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari nitishastra turidagi asarlar ham borki, ularning asosiy mazmuni podsholarga axloqiy nasixatlar, shuningdek ichki va tashqi siyosatiga oid maslahatlardan iborat. Qadimgi Hindistonda davlatlararo munosabatlar nazariyasining asosida mandala (ya'ni "doira", odatda "davlat doirasi" ma'nosida izoxlanadi) konsepsiyasi yotadi.

"Istilolar qilishga intilgan" hukmdor uchun o'z raqiblarini bo'ysundirish faqatgina eng birinchi maqsad deb hisoblangan. Agar unga erishsa, keyingi mo'ljal - bu "o'rtadagi" va "betaraf" hukmdorlarning yerlaridir. Ushbu istilolarning natijasida dunyo ustidan hukmronlik o'rnatilishi lozim edi.

Mandala - bu tashqi siyosatga oid muayyan harakatlar va chora - tadbirlar majmuasi sifatida tasavvur qilish mumkin - ki, u yanada yirik davlatga aylanib ketish tendensiyasiga egadir. Buyuk davlatning (va oxiri kelib "jahon" saltanatining) barpo etilishi siyosatning oxirgi maqsadi deb hisoblangan.

Dushman ustidan g'olib chiqishning eng muhim vositasi sifatida u va uning ittifoqchilari orasida adovatni keltirib chiqarish, raqib ittifoqchilari bilan separat (boshqalar bilan kelishilmagan, bir tomonlama) shartnomalar imzolash yoki ularga to'g'ridan - to'g'ri harbiy yordam ko'rsatish, ya'ni dushman mandalasini parchalab tashlash tan olingan. Mandalaning yana bir ahamiyatli xususiyatini ta'kidlash kerak: podshoning ittifoqchilari, taxtda o'tirib va hokimiyatga ega bo'lib, o'z ittifoqchilarini ham saqlab qolishgan.

"Artxashastra" tuzuvchisi, qasam ichish marosimida qisqacha to'xtalib, qulayroq usul sifatida tan olingan garovga olishning muxokamasiga asosiy e'tiborini qaratgan. "Tinchlik" davlatlarning uzoq va doimo birga (bir joyda va bir vaqtda) mavjud bo'lishini anglatmasdi. Tinchlikka erishish faqatgina kuchliroq dushman ustidan g'olib chiqishning eng yaxshi vositasi sifatida tavsiya etilardi. Murosa - madora munosabati bilan "siyosatning to'rt usuli" ham tilga olinadi. Bular - "o'gitlar, pand - nasixatlar", "sovg'alar", "nizo urug'ini sepmoq" va "kuch ishlatish". Ushbu usullardan birin - ketin foydalanish mumkin. Murosaga kelish ayniqsa dushmanga nisbatan ochiqdan - ochiq kuch bilan qarshilik qilishga o'z bo'lgan zaif podsholarga tavsiya etiladi.

Diplomatik tushdagi turli xil shartnomalarning ta'rifiga "Artxashastra"da katta e'tibor qaratilgan. Ular orasida teng huquqli va tengsizlari, foydali va foydasizlari, shartlari mavjud va shartlari yo'q shartnomalar alohida belgilab ko'rsatilgan.

Tashqi siyosatning an'anaviy usullari orasida ahamiyati jihatdan ikkinchi o'rinda urush turadi. Urush barcha usullardan foydalanib bo'lgandan keyingina, oxirgi vosita sifatida ko'rilgan. Podshoga g'alabalarga jangsiz erishish tavsiya qilingan, chunki tinch yo'l bilan bo'ysundirish kamroq kuchni va xarajatni talab qiladi.

"Duta" ("elchi") atamasining braxmanlarda tilga olinishi elchilik xizmati Hindistonda davlatchilik taraqqiyotining ilk bosqichida (mil. avv. I ming yillikning birinchi choragi) vujudga kelgan deb so'z yuritishga imkon berardi.

Kautilyaning "Artxashastra"sida maxsus bob elchining vazifalariga bag'ishlangan. Shu yerda, jumladan, elchilarning turkumlari keltirilgan - "muxtor", "cheklangan vakolatlarga ega" va "chopar" (maktublar yetkazuvchi).

Miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida Xuanxe daryosining o'rta oqimida Shan davlati mavjud edi va uning ta'siri Shimoliy Xitoydagi ilk davlatchilik tuzilmalariga, hamda qabilaviy uyushmalarga yoyilgandi. Miloddan avvalgi II ming yillikning oxirida Xitoyning shimoliy-g'arbiy qismida istiqomat qilgan chjou qabilalari shanliklarni zabt etishdi va g'arbiy Chjou nomi bilan ma'lum bo'lgan anchagina yirik davlatni barpo qilishdi. Chjou davlatining poytaxti Xao shahridan Loi shahriga (zamonaviy Loyan) ko'chirilishi bilan (miloddan avvalgi 770 yil) Sharqiy Chjou sulolasining davri boshlandi.

Xuanxe daryosi o'rta oqimi va Buyuk Xitoy tekisligida joylashgan davlatlar, qolgan barcha xalqlar va podsholiklardan farqliroq tarzda, o'zlarini xuasya etnomadaniy birligi qatoriga kirgizishgan va "o'rtadagi davlat" -lar deb nomlanishgan. "O'rtadagi podsholik"-larning barchasi Chjou davlatining ustunligini tan olishgan. Chjou hukmdori - van "Samo o'g'li" iloxiy unvoniga ega edi, "o'rtadagi podsholik"-larning hukmdorlari esa uni Xitoydagi oliy diniy nufuzga ega bo'lgan shaxs sifatida izzat qilishgan.

Hamonki ushbu podsholiklar o'rtasidagi urushlar doimo bo'lib o'tar ekan, davlatlararo munosabatlar, ular o'rtasida ittifoqlar tuzish tartibi, razvedkani (josuslikni) tashkil etish masalalariga oid boy amaliy tajriba asrlar davomida to'plandi. Ayniqsa oxirgisi katta rol o'ynagan. Shu paytda davlatlararo munosabatlar nazariyasi va amaliyotiga taalluqli ta'limotlar va doktrinalar yaratildi. "O'rtadagi podsholiklar" - "xuasya" va "varvarlar"-ning o'xshash emasligi to'g'risidagi tasavvurlar shakllandi va bu xol tashqi siyosiy aloqalar tamoyillariga o'z ta'sirini o'tkazdi. Samo o'g'lini butun olamning hukmdori sifatida tasvirlaydigan Chjou doktrinasi "o'rtadagi podsholiklar" aholisining ustunligi va "varvar"-larning tug'ma yetilmaganligi to'g'risidagi Konfusiy (miloddan avvalgi 551-479 yy.) ta'limotining negizini tashkil etdi. Ushbu ta'limot qadimgi Xitoyda davlatlararo munosabatlar nazariyasi va amaliyotiga sezilarli darajada ta'sir etdi. Butun olam hukmdori hisoblanmish Samo o'g'li to'g'risidagi Chjou doktrinasi Chjou vanining unga itoatkorligini ifoda qilishi lozim bo'lgan yaqin va uzoqdagi xalqlar, hamda

podsholiklar bilan bir tomonlama munosabatlarining ideallashtirilgan sxemasini taklif etardi.

Hukmdorlar xuzuridagi ayrim amaldorlarning vazifalari doirasiga boshqa davlatlar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish masalasi kirardi va maxsus kishilar elchilar nutqini tayyorlashardi. Dastlab saroyda muxokama qilingan ushbu nutqlar qo'shni davlatlar bilan muzokaralar olib borilganda katta ahamiyatga ega edi.

O'z paytida Chjou vani Si hukmdori Xuan – Gunning mustaqil ravishda tashqi siyosiy va diplomatik harakatlar olib borish, hamda harbiy ittifoqlar tuzish, shuningdek “ba” (gegemon) unvoniga ega bo'lish huquqini tan oldi. Ittifoqchi podsholiklar gegemonga birlashish muqaddas qasamini (men) ichishardi. Si davlatidan so'ng gegemonlik birin-ketin boshqa davlatlar qo'liga o'tib bordi.

Gegemonlarning siyosiy ustivorligini mustahkamlashda elchilarni qabul qilish va yuborish marosimi muhim rol o'ynardi. Elchilarni yo'lga otlantirish gegemonlarni o'ziga yarashmasdi, shu paytning o'zida esa ittifoqchi podsholiklar hukmdorlarining shaxsan o'zlari elchilar sifatida gegemon xuzuriga yetib kelardilar.

Ittifoqchi davlatlar podsholariining o'g'illarini garovga olish Chjango davridagi davlatlararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatiga aylandi. Davlatlar tomonidan mayda podsholiklarni bosib olish jarayoni avj olgandi. Bu esa podsholiklar o'rtasidagi ittifoqlarning yiriklashuviga sabab bo'lardi. Davlatlararo yirik birlashmalarning alohida shakllari yuzaga keldiki, ular “vertikal bo'yicha ittifoqlar”, “gorizontal bo'yicha ittifoqlar”, “uzoqdagi davlatlarning yaqindagi davlatlarga qarshi ittifoqlar” deb nomlanishi bilan ma'lumdir. Ushbu sharoitda davlatlararo bitimlarni tuzish amaliyoti bilan bog'liq maxsus faoliyat turiga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'ladi. Bunday zarurat nafaqat urush vaqtida, balki boshqa paytlarda ham talab qilingandi.

Jamiyatning o'qimishli qatlamlari orasida diplomatik tUSDagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan bilimlar va tajribaga ega bo'lgan, siyosiy vaziyatni nazariy va amaliy jihatdan tushunadigan, gapga chechan, ishning o'ziga xos ustalari paydo bo'ldi. Diplomatiyaga taalluqli faoliyatning katta ahamiyatga ega ekanligini Chjango davrida mavjud bo'lgan barcha g'oyaviy-siyosiy maktablarning vakillari ta'kidlashgan. Jumladan, Konfusiy diplomatiya san'atiga o'rgatishni podsholikni boshqarishdan keyin ikkinchi o'ringa qo'ygan. Elchilar yozma emas, balki og'zaki ko'rsatmalar bilan yuborilgan.

Qadimgi Xitoyda diplomatik daxlsizlik haqida tushuncha mavjud bo'lmasligiga qaramasdan, amalda har qanday podsholikda elchiga o'ta hurmat bilan qaralgan.

Nazorat savollari:

1. Qadimgi Misrda “nomliklar” o'rtasidagi munosabatlar qanday siyosiy ahamiyatga ega?
2. Tamkarlarning Qadimgi Mesopotamiya elchilik munosabatlari tizimida tutgan o'rni nimada?
3. Qadimgi Xitoyda “Chjango” davriga oid diplomatik munosabatlarni to'g'ri izohlang?

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Xolliev A. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi. – T., 2014.
2. Avdiyev V.I. Qadimgi sharq tarixi. –T., 1964.
3. Berejkov V.M. Stranisi diplomaticheskoy istorii. 4-oye izdaniye. M. 1987.
4. Biykuziyev A.A., Djurayev R.X. Qadimgi Sharq tarixi. –T.,2016.
5. Bogaturov A.D., Averkov V.V. Istoriya mejdunarodnix otnosheniy. 1945-2008. M., 2010.
6. Bokshanin A.G. Istoriya mejdunarodnix otnosheniy i diplomatii v drevnem mire. M. 1948.
7. Gerni O.R. Xetti. M. 1987.

2-mavzu Qadimgi Yunonistonda xalqaro munosabatlar va diplomatiya

REJA:

- 2.1. Afina polisi diplomatiyasi.
- 2.2. Afina va Sparta o'rtasidagi diplomatik munosabatlar.
- 2.3. Yunon-Makedon imperiyasining tashqi siyosati.
- 2.4. Ellin davlatlari diplomatiyasi.

Tayanch iboralar: Afina aholisi. Prokseniya, Amfiktoniya, Delfa - Fermopil amfiktoniyasi. Janubiy Bolqon yarim oroli hududlarini o'zlashtirilishi. Demos. "Metek" tushunchasi va unga nisbatan "demokratik" yondashuvi. Arxont, Strateg, Kalliy, Mardoniy, Pereik va doriy. Afina dengiz ittifoqi va Axamoniylar davlati o'rtasidagi xalqaro munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari. Makedoniyaning taqi siyosati.

Qadimgi Yunonistonda osoyishta xalqaro aloqalar va xalqaro huquqning eng qadimgi shakli "prokseniya" (ya'ni, mexmondo'stlik) edi. Prokseniya alohida shaxslar, urug'lar, qabilalar va davlatlar o'rtasida mavjud bo'lgandi. Proksenlar orqali diplomatik muzokaralar olib boriladi; shaharga yetib kelgan elchiliklar birinchi galda o'zining prokseniga murojaat qilardi.

Prokseniya qadimgi yunon dunyosining keyingi barcha xalqaro aloqalari uchun asos qilib olindi.

"Amfiktoniya" lar ham xalqaro aloqalarning xuddi shunday qadimiy shakli edi. Alohida izzat qilinadigan iloxning ibodatxonasi atrofida yuzaga kelgan diniy ittifoqlar amfiktoniyalar deb nomlanardi. Ushbu ittifoqlarga ibodatxona atrofida, qarindoshchilik munosabatlaridan qat'i nazar, istiqomat qiluvchi qabilalar kirardi.

Qabilalar to'planib, bayramlar o'tkazilgan paytda urush olib borish man etilardi, hamda "iloxiy tinchlik" e'lon qilinardi. Shunday qilib, amfiktoniyalar xalqaro tushdagi diniy - siyosiy tartibga aylanardi.

Qadimiy Yunonistonda amfiktoniyalar bir nechta bo'lib, ularning orasida eng qadimgisi va katta ta'sirga ega bo'lgani Delfa - Fermopil amfiktoniyasi edi. Delfa shahridagi Appolon xudosi ibodatxonasi qoshidagi va Fermopil shahridagi Demetra xudosi ibodatxonasi qoshidagi amfiktoniyalarning birlashishi negizida ushbu ittifoq yuzaga keldi. Delfa - Fermopil amfiktoniyasi tarkibiga 12 qabila kirgandi.

Delfa - Fermopil amfiktoniyasining asosiy maqsadi Delfa shahridagi Appolon xudosi ibodatxonasini, uning boyliklarini va yer egaliklarini qo'riqlash edi. Shu bilan bir qatorda, amfiktoniya ma'lum jihatdan umumyunon, ya'ni o'ziga xos xalqaro qoidalarini o'rnatishga harakat qilardi-ki, ularga amfiktoniyaning barcha a'zolari rioya qilishlari kerak edi. "Simmaxiya"-lar nomini olgan harbiy - siyosiy ittifoq to'g'risidagi shartnomalar qadimgi Yunonistonda xalqaro munosabatlarning o'zgacha bir ko'rinishini kasb etdilar. Ularning orasida eng yiriklari Lakedemon va Afina simmaxiyalari edi.

Lakedemon simmaxiyasi miloddan avvalgi VI asrda Peloponnes shaharlari va jamoalarining ittifoqi sifatida vujudga keldi. Unga Sparta boshchilik qilardi. Afina

shahri rahbarligidagi Afina (Delos) simmaxiyasi esa Yunoniston -Eron urushlari davrida eronliklarga qarshi kurashish uchun tuzilgandi.

Jamoalar va polislar o'rtasida yuzaga kelgan nizolar maxsus vakillar yoki elchilar, vositachiligida hal etilardi. Qadimgi Yunoniston tarixining "Gomer davrida" ular darakchilar (keryuks, angelos) deb atalgan bo'lsa, klassik davrida esa oqsoqollar (presbeys) nomini olgandi.

Elchilik a'zolarining soni turlicha bo'lib, mavjud sharoitlardan kelib chiqib belgilanardi. Elchilik maqsadlari elchilarga berilgan yo'riqnomalarda ma'lum qilinardi. Yo'riqnomalar aniq o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilardi: bir - biriga birlashtirilib taxlangan ikki mumlangan taxtachalardan (diplomata) iborat yorliq shaklida edi. "Diplomatiya" atamasi ham shundan kelib chiqadi.

Qadimgi Yunonistonning rivojlanishida ko'zga tashlanadigan aniq uch davrni ko'rsatish mumkin:

- 1) Krit - Mikena davri (miloddan avvalgi II ming yillik);
- 2) Polislar davri (miloddan avvalgi XI – IV asrlar);
- 3) Ellinizm davri (miloddan avvalgi 334 – 30 yillar).

Krit davlati va Axeyya podsholiklarining mavjud bo'lishi birinchi davrga xos bo'lgan holatdir. Kritning Misr kabi qudratli davlatlar bilan munosabatlari do'stona edi, manbalarda elchiliklar bilan almashishlar ko'rsatib o'tiladi. Axeya podsholiklari qo'shni davlatlarga nisbatan urushqoq siyosat yurgazardilar, urushlar olib borish yo'lida birlashdilar (Troya urushlari - miloddan avvalgi 1240 – 1230 yillar).

Qadimgi Yunoniston tarixining ikkinchi bosqichida ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy jihatdan jamiyatning ildamlilik bilan rivojlanishi ro'y berdi. Klassik qulchilik negizida rivojlangan quldorlik iqtisodiyotiga ega shaharlar - davlatlar - polislar paydo bo'ldi.

Yunon davlatlari siyosiy mustaqilikka ega bo'lganligi sababli xalqaro munosabatlar tarixini polislararo munosabatlar sifatida, qo'shni davlatlarga nisbatan esa tashqi siyosat sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Ushbu bosqichning eng muhim voqealaridan biri Yunoniston - Eron urushlari edi. Eron ushbu urushlarni aholisi ko'p va iqtisodiy rivojlangan boy yunon polislarni zabt etish maqsadida olib bordi. Yunonlarning Eron davlati bilan mil. avv.500 - 449 yillardagi to'qnashuvlari Yunoniston - Eron urushlari nomini olgan, chunki harbiy harakatlar bir necha kompaniyalarga bo'linadi.

Yunoniston-Eron urushlarida yunonlarning vatanparvarligi va jasorati (mil. avv. 490yilda Marafon yonidagi jang, mil. avv. 480 yilda Fermopil yo'lagi yonidagi jang) yorqin namoyon bo'ldi, birlashish zarurligi anglab yetildi (Panellin ittifoqi - mil. avv. 481 y., Delos ittifoqi - mil. avv. 47 8y.). Ushbu laxzalar polis iqtisodiyoti va jamiyatining yuksalishi, polis tuzilishining mukammalik davrini boshidan kechirayotganligi bilan izoxlanadi. Ushbu jarayonlar natijasida yunonlar qadimgi dunyoning eng yirik davlati sifatida namoyon bo'lgan Axamoniylar saltanati bilan bo'lgan to'qnashuvda g'alabaga erishdilar.

Miloddan avvalgi 449 yilda "Kaliy" sulhi tuzildi. Eron podshohi bilan tinchlik tuzish maqsadida Kiprga yuborilgan Afina elchisining ismi Kaliy bo'lganligi sababli ushbu bitim shunday nomlanadi.

Miloddan avvalgi 478 yilda Delos simmaxiyasining (ittifoqining) tashkil etilishi urushning yana bir muhim natijalaridan biri bo'ldi. Bu - tashqi siyosatdagi asosiy maqsadlari bir - biriga mos kelgan, tez sur'atlarda iqtisodiy rivojlanishdan manfaatdor bo'lgan, bir xil demokratik tuzumga ega yunon shaharlarining mustahkam birlashmasi va harbiy ittifoqi edi. Ammo ushbu ittifoqning tashkil etilishi paytidan boshlab Afinaning ustunligi ko'zga tashlandi. Chunki ushbu shahar yirik boy polis bo'lib, eronliklarga qarshi urushning asosiy og'irligini o'z gardaniga oldi. Miloddan avvalgi 454 yilda ittifoqning xazinasini Delos orolidan Afinaga o'tkazilishdan so'ng ushbu ustunlik yanada yaqqol bo'lib qoldi.

Ittifoqchilar Afinaga teng a'zolar sifatida emas, balki ma'lum jihatdan fuqarolar sifatida ko'rildilar. Miloddan avvalgi 454 yil Delos simmaxiyasining Afina arxesiga (davlatiga) aylanish davrining chegarasi hisoblanadi.

Urushdan so'ng yunon polislarining gullab - yashnash davri boshlandi. Ushbu davr iqtisodiyotning o'sishi va madaniyatning yuksak rivojlanishi bilan ifodalanadi.

Afina davlatiga strateg sifatida boshchilik qilgan Perikl birinchi Afina dengiz ittifoqiga kirgan polislarini birlashtirishga va yagona ittifoqchi davlatni barpo etishga intildi. Bu esa dengiz ittifoqining ichida keskin nizolarga olib kelardi. Bir vaqtning o'zida tashqi siyosiy tushdagi to'qnashuvlar ham yetilmoqda edi: Afina va Korinfning G'arbga olib boradigan savdo yo'llar uchun kurashi; Afina va Spartaning Yunonistonda gegemonlik qilish uchun kurashi. Ushbu barcha qarama- qarshiliklar yunon polislarining ko'pchiligini o'z domiga tortib ketgan Peloponnes urushiga (mil. avv. 431 - 404yy.) olib keldi. Peloponnes urushi ikki asosiy davrga bo'linadi:

Miloddan avvalgi 421 - 415 yillar davomida vaqtincha sulh saqlandi. Harbiy harakatlar bir paytning o'zida turli hududlarda olib borildi: Egey dengizi havzasida, Peloponnesda, O'rta Yunonistonda, G'arbiy viloyatlarda, Sisiliyada. Urushning ikkinchi davrida Sparta yordam so'rab Eron davlatiga murojaat qildi. Ko'mak berish evaziga eronliklar Kichik Osiyoda joylashgan yunon shaharlarini nazorat qilish huquqini talab qildilar. Sparta bunga rozi bo'lmadi, biroq rad javobini ham bermadi. Bu - Yunonistonning milliy manfaatlariga nisbatan sotqinlik edi. Urush Spartaning g'alabasi bilan yakunlandi. Birinchi Afina dengiz ittifoqi tarqatib yuborildi. Spartaning gegemonligi davri boshlandi.

Polislar o'rtasidagi doimiy urushlar ularning shundoq ham tang axvolini yanada zaiflashtirardi.

Miloddan avvalgi 399 yilda Eron va Sparta o'rtasida urush boshlandi. Axamoniylar orasidagi sulolaviy kurashga Spartaning aralashuvi ushbu urushni keltirib chiqardi. Sparta urushning oxirida qilgan sotqinligi tufayli o'zini yunonlar oldida obro' - e'tiborini tiklashga va Kichik Osiyoda joylashgan yunon shaharlarini ozod etishga intildi. Biroq miloddan avvalgi 395 yilda Axamoniylar yordamida tuzilgan koalitsiya (ittifoq) Spartaqa qarshi urush boshladi. Ushbu ittifoqqa Afina, Korinf, Fiva kirdi. Polislarining zaiflashuvi va iqtisodiyotining tanazzulga yuz tutishi o'sha davrda ularning barchasini boy Eron davlatiga nisbatan qaram qilib qo'ygandi. Eron urushayotgan tomonlarini tinchlik shartlarini qabul qilishga faktik jihatdan majburladi (mil. avv. 387 yilda tuzilgan "Antalkid" sulhi); Eron davlati Kichik Osiyo shaharlari ustidan bo'lgan hokimiyatini tikladi, eronliklar flotiga Egey dengiziga

kirish ruxsat etildi, yunon polislari ustidan kuzatish va nazorat qilish Sparta topshirildi. Spartaning siyosati davlatlar muxtoriyatini buzish, demokratlarga jazo berish, oligarxik tartiblarni o'rnatish orqali o'z ifodasini topdi. Sparta yunonlar erkinligi va mustaqilligining asosiy dushmaniga aylandi. Millodan avvalgi 382 yilda ro'y bergan oligarxik to'ntarishdan keyin Fiva demokratlari mil.aval. 379 yilda demokratik tuzumni tiklashdi va mil. avv.VI asrdayoq mavjud bo'lgan Beotiya ittifoqini qaytadan vujudga keltirishdi. Miloddan avvalgi 378 - 377 yillarda Sparta bilan kurashish uchun Ikkinchi Afina dengiz ittifoqi tuzildi. Levktra shahri yonidagi jangda (mil. avv. 371 y.) fivaliklar Sparta qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratishdi va ushbu voqea Spartaning yengilmasligi to'g'risidagi afsonani yo'qqa chiqardi. Mantiney yonidagi jangda (mil. avv. 362y.) fivaliklar sarkardasi Epaminondning o'limidan so'ng Fiva shahrining qisqa muddatli yuksalishi yakunlandi. Bunga Fivaning kuchayishidan qo'rqib qolgan Afinaning fivaliklarga nisbatan g'arazli munosabati sabab bo'ldi. Biroq, Afinaning Ikkinchi Afina dengiz ittifoqida o'z ustivorligini o'rnatishga qaratilgan urinishlari ittifoqchilarning qarshiligiga uchradi va "Ittifoqchilar urushi" ga olib keldi(mil. avv. 357 - 355yy.). Ushbu urush ittifoqning tarqalib ketishi bilan yakunlandi.

Shu davrda Yunonistonning shimolida yangi harbiy - siyosiy kuch sifatida Makedoniya namoyon bo'ldi. Miloddan avvalgi 346 yilga kelib Makedoniya podshosi Filipp II tomonidan oldin Fessaliya, so'ngra Fokida, Xolkidika va Frakiya soxili bosib olindi. Afinada va Yunonistonning boshqa polislarda Makedoniyaga qarshi va tarafdor partiyalar o'rtasida kurash bo'lib o'tardi. Demosfenning harakatlari tufayli yunon shaharlarining Makedoniyaga qarshi ittifoqi tuzildi. Ammo ushbu ittifoq mil. avv. 338 yilda Xeroneya shahri yonidagi jangda to'la mag'lubiyatga uchradi. Bu yerda, Makedoniyaga qarshi partiyaning rahbarlaridan biri bo'lgan Likurgning so'zlariga ko'ra, "halok bo'lganlarning tanalari bilan birga yunonlarning erkinligi ham ko'mildi". Miloddan avvalgi 337 yilda Filipp II tomonidan Korinfda chaqirilgan kongress Yunonistonning Makedoniyaga bo'ysunishini rasmiylashtirdi.

Ushbu voqealar bilan qadimgi Yunoniston tarixining III - bosqichi boshlandi. Aleksandr Makedonskiy (Iskandar) boshchiligidagi yunon - makedonlar armiyasi mil. avv. 334 yilda Eron davlatiga yurishni boshlaydi. Uch jangda (Granik daryosi yonidagi jang - mil. avv. 334, Iss yonidagi jang - mil. avv. 333 yilda, Gavgamela yonidagi jang - mil. avv. 331 y.) erishilgan g'alabalar natijasida Eron davlatining katta qismi egallandi.

Sharq tomon harakatlangan Aleksandr O'rta Osiyoga, so'ngra esa G'arbiy Hindistonga bostirib kirdi. Aleksandrning sharqiy yurishi natijasida ulkan davlat barpo etildi.

Uning o'limidan so'ng (mil.avv. 323y.) sarkardalar - diadoxlar o'rtasida kurash natijasida ellin davlatlari shakllandi. Ushbu kurash mil.avv. 321 yilda boshlandi va mil.avv. 281 yilda yakunlandi. Yirik davlatlar tashkil topdi - Ptolemeylar podsholigi (Misr), Salavkiylar davlati, Pont, so'ngra Pergam, Kappadokiya, Yunon - Baqtriya podsholigi.

Salavkiylar va Ptolemeylar davlatlari O'rta yer dengizining sharqiy qismida o'z hukmronligini o'rnatish uchun raqobat qilardilar va Yunonistonda faol rol o'ynashga

intildilar. Buning ustiga ular vaqti - vaqti bilan uchinchi ellin davlati -Makedoniya bilan murakkab munosabatlarga ega bo'lardilar. Makedoniya Egeidani doimo o'z nazorati ostida ushlab turishga to'g'ridan - to'g'ri manfaatdor edi. Salavkiylar Ptolemeylar bilan Kelesiriya (Janubiy Suriya) uchun ayniqsa shiddatli kurash olib borishardi, chunki Hindiston va Sharqning boshqa mamlakatlaridan keladigan savdo yo'llari O'rta yer dengizining sharqiy soxilida tugardi, Salavkiylar esa Suriyaning faqat shimoliy qismiga egalik qilardi. O'z navbatida Ptolemeylar Keleseriyadan shimolga siljishga intildilar. Keyinchalik 1 - Suriya urushi nomini olgan ushbu to'qnashuvlarda (mil.avv III asrning 80 – yillari) omad u yoki bu tomonda bo'ladi va Ptolemey II ning biroz ustunligi bilan yakunlandi, chunki Misr floti Salavkiylar flotiga nisbatan kuchliroq bo'lib chiqdi. Biroq shu paytning o'zida, Afrikada, Antiox I Salavkiy ko'magida Kirenaika Misrdan ajralib chiqdi va mustaqil davlatga aylandi. Mileyet, Kikladika orollari va boshqa nuqtalarga ega bo'lgan Misr yunonlarning Makedoniyaga qarshi chiqishlarini qo'llab - quvvatlardi. Lekin, tez orada Makedoniya, Salavkiylar va Rodos oroli Misrni Egey dengizi mintaqasidan surib chiqardilar. Makedoniya hatto Kirenaika bilan yaqinlashishga muvaffaqiyatsiz urinib ko'rdi. Maqsad - Kirenaikadan Misrga qarshi foydalanish edi. Miloddan avvalgi III asrning 60 - yillarida Antiox II Misrga qarshi 2 -Suriya urushini boshladi. Biroq, Kaspiy dengizidan sharqda joylashgan ulkan hududlarning bosh ko'tarishni va Salavkiylardan ajralib chiqishi (bu yerlarda mustaqil Parfiya va Baqtriya davlatlari vujudga keldi) vaziyatni murakkablashtirdi.

Nazorat savollari:

1. Qadimgi Yunonistonda Sparta va Afina o'rtasidagi raqobat haqida nimalarni bilasiz?
2. Qadimgi Yunonistonda xalqaro va diplomatik aloqalar shakllari asoslarini kimlar yaratganlar?
3. Amfiksioniya deganda nimalarni tushunasiz?.
4. Afina dengiz ittifoqining geosiyosiy ahamiyati nimada?

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Bogaturov A.D., Averkov V.V. Istoriya mejdunarodnix otnosheniy. 1945-2008. M., 2010.
2. Bokshanin A.G. Istoriya mejdunarodnix otnosheniy i diplomatii v drevnem mire. M. 1948.
3. Istoriya mejdunarodnix otnosheniy. Osnovniye etapi s drevnosti do nashix dney. – M., Logos, 2007. / pod red. G.V.Kamenskoy, O.A.Kolobova, E.G.Solovyeva.
4. Black Jeremy. A History of Diplomacy. Reaktion Books, 2010.

**3-mavzu: Xalqaro munosabatlarning asosiy masalalari.
Diplomatiyaning mohiyati.**

REJA:

- 3.1. Diplomatiya va tashqi siyosat.*
- 3.2. Diplomatiyada Status kuo tushunchasi.*
- 3.3. Tashqi ishlar vazirligi boshqaruvi tizimi.*

Tayanch iboralar: *diplomatiya, xalqaro munosabatlar, informasion jarayonlar, siyosiy voqealar, muzakoralar, saylovlar, davlat, biznes, evolyusiya, nazariya, amaliyot, fan, konsepsiya, diskurs va paradigma, milliy manfaatlar.*

Diplomatiya - har bir mustaqil davlatning o'z tashqi siyosatini amalga oshirishida muhim vosita hisoblanadi. Diplomatiyaning mohiyati shundaki, u, birinchidan, xalqlar, davlatlar o'rtasida paydo bo'ladigan turli nizo va kelishmovchiliklarni yuzaga chiqaruvchi muammolarni noharbiy, tinchlik yo'llari, usul va vositalari bilan hal etish, ikkinchidan, davlatlar o'rtasida turli sohalar bo'yicha hamkorlik munosabatlari o'rnatish va uni rivojlantirishda alohida o'rin tutadi.

Diplomatik protokolning kelib chiqishi jarayoni haqida so'z yuritishdan oldin, avvalo, diplomatiyaning paydo bo'lish tarixiga qisqacha nazar tashlash zarur, chunki ba'zi bir adabiyotlarda dipprotokol diplomatiya bilan bir vaqtda, uning tayanchi, vositasi sifatida paydo bo'lgani ta'kidlanadi.

Insoniyat tarixining ibtidoiy davrida qabilalar, ular o'rtasida ovchilik va baliqchilik hududlari va chegaralarining paydo bo'lishi, umuman, xususiy mulkchilikning vujudga kelishi bilan diplomatiyaning daslabki kurtaklari shakllana boshlangan. Qabilalar o'rtasida muammolar, munozaralar, ba'zan esa to'qnashuvlar ham yuzaga kelgan. Dastlab muammo va nizolarni kuch ishlatish yo'li bilan hal qilishga harakat qilingan. Keyinchalik ular mavjud ziddiyatlarni kuch ishlatish va qon to'kish yo'li bilan emas, balki o'zaro kelishuvlar vositasida hal etishni afzal ko'rganlar.

Bugungi biz bilgan tom ma'nodagi diplomatiya davlatlarning paydo bo'lishi bilan vujudga kela boshlagan. Bu fikrning tasdig'i sifatida eramizdan oldingi XV asrga tegishli Fir'avnning maqbarasidan topilgan o'sha davr Misr tashqi aloqalari arxivini keltirishimiz mumkin. Unga ko'ra, qadimgi Misr qo'shni davlatlar bilan keng hamkorlik aloqalari olib borgan.

Miloddan avvalgi III ming yillikda Mesopotamiyaga keltirilgan maxsulotlarning aksariyat qismi aynan savdo orqali ta'minlanardi. Bu esa tabiiyki, savdo almashuvining yo'lga qo'yilgan tartibini nazarda tutadi. Qolaversa, savdo karvonlarining erkin qatnovini ta'minlovchi o'zaro kafolatlar ham mavjud bo'lishi kerak edi.

Zamonaviy diplomatiyaning shakllanishi, albatta, XX asrda sodir bo'lgan tarixiy jarayonlar natijasida rivojlanib borgan. 1945 yilning 4 - 11 fevral kunlari Qrimda (Yalta) SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya davlatlari rahbarlarining konferensiyasi bo'lib o'tdi. Konferensiyada ittifoqchilarning kelgusi harbiy harakatlari muvofiqlashtirildi, Germaniya taslim bo'lganidan so'ng uni nazorat qilishning shakllari va usullari belgilab olindi. SSSR o'z zimmasiga Germaniya taslim bo'lganidan so'ng 2 - 3 oy o'tgach Yaponiyaga qarshi urushga kirish majburiyatini oldi.

Uch davlat qaroriga ko'ra 1945 yil 25 aprelda San - Fransiskoda ochilgan konferensiyada Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ta'sis etildi. Yalpi tinchlikni saqlash bo'yicha asosiy mas'uliyat Xavfsizlik Kengashiga yuklatildi.

1945 yilning aprelida sovet armiyasi Berlinga hal qiluvchi hujumni boshladi. G'arbdan ingliz - amerika qo'shinlari ham hujum olib borishdi. Ittifoqchi qo'shinlarning uchrashuvi 1945 yil 25 aprelda Elba daryosi yonida Torgau shahri atrofida ro'y berdi. Shimoliy Italiyadagi nemis qo'shinlarining qoldiqlari 1945 yil 29 aprelda taslim bo'ldi. "Salo Respublikasi" yo'q qilindi, Mussolini esa partizanlar tomonidan otib tashlandi. Sovet qo'shinlari Germaniya poytaxtini qurshab olishni yakunlab, 2 may kuni Berlinni shturm bilan ishg'ol etdi. 1945 yil 8 mayda german qo'mondonligi Germaniyaning so'zsiz taslim bo'lganligi to'g'risidagi akti imzoladi.

German qo'shinlarining bir qismi Praga shahrida qo'zg'olon ko'targan chex vatanparvarlariga qarshi harbiy harakatlarni davom ettirdi, biroq sovet qo'shinlarining shitob bilan qilgan zarbasi natijasida tor - mor etildi. 1945 yil 9 mayda Praga ozod etildi. Yevropada harbiy harakatlar to'xtatildi.

1945 yilning 17 iyulidan 2 avgustiga qadar Potstamda (Berlin yaqinida) SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya davlatlari rahbarlarining uchinchi konferensiyasi bo'lib o'tdi. Potsdam konferensiyasi urushdan keyin dunyoning tuzilishiga bag'ishlangan edi. Konferensiya ishidagi markaziy e'tibor Germaniyaga nisbatan olib boriladigan siyosat masalasiga qaratildi. Ittifoqchilar Germaniyani to'la quolsizlantirish va harbiysizlantirish, fashistlar partiyasini yo'q qilish, Germaniyada so'z, matbuot va din erkinligini tiklash, erkin kasaba uyushmalarini tuzishga va demokratik partiyalarning faoliyat olib borishga ruxsat berish to'g'risida qaror qabul qilishdi.

1945 yilning mart oyigacha ingliz-amerika qo'shinlari Tinch okeani havzasida va Janubi-Sharqiy Osiyoda Yaponiyaga qarshi muvaffaqiyatli harbiy harakatlar olib borishdi. SSSR o'z zimmasiga olgan majburiyatlarga muvofiq tarzda 1945 yil 9 avgustda Yaponiyaga qarshi urushga kirdi. Sovet qo'shinlarining Mo'g'uliston Xalq Respublikasi qurolli kuchlari bilan birgalikda amalga oshirgan shiddatli zarbasi natijasida Kvantun armiyasi tor-mor etildi. Shimoliy - Sharqiy Xitoy, Shimoliy Koreya, Janubiy Saxalin va Kuril orollari yapon qo'shinlaridan tozalandi.

6 va 9 avgustda Amerika aviasiyasi yapon shaharlari Xirosima va Nagasakiga atom bombalarini tashladi. Yadroviy qurolni ishlatishni harbiy zaruriyati yo'q edi, chunki Yaponiyaning harbiy qudrati sindirib bo'lingandi.

1945 yilning 2 sentabrida Tokio ko'rfazida Amerika linkori "Missuri" bortida Yaponiya so'zsiz taslim bo'lganligi to'g'risidagi akti imzoladi. Ikkinchi jahon urushi yakunlandi.

Urushning asosiy natijasi - fashizm ustidan erishilgan g'alaba edi. SSSR ning xalqaro nufuzi mislsiz oshib ketdi. G'arbning buyuk davlatlaridan faqat AQSH urushdan jiddiy kuchayib chiqdi. Ikkinchi jahon urushi natijasida xalqaro siyosatidagi kuchlar nisbati keskin o'zgardi.

Potsdam konferensiyasining o'zidayoq, zimmasiga Germaniyaning sobiq ittifoqchilari bilan tinchlik shartnomalarining loyihalarini tayyorlash vazifasi topshirilgan, Tashqi Ishlar Vazirlari Kengashi barpo etildi. Shunday shartnomalar

tayyorlandi va 1947 yilning 10 fevralida Bolgariya, Vengriya, Italiya, Ruminiya va Finlyandiya bilan imzolandi.

Parij tinchlik konferensiyasida (iyul - oktabr 1946y.) SSSR va G'arb davlatlari o'rtasida dunyoning urushdan keyingi tuzilishiga oid eng muhim masalalar bo'yicha kelishmovchiliklar ko'zga tashlandi.

German masalasini tartibga solishga oid ziddiyatlarning zo'rayib ketishi Germaniyani (1949y.) turli ijtimoiy tuzumga ega ikki davlatga bo'linib ketishiga olib keldi.

Sobiq ittifoqchilar o'rtasidagi munosabatlar yomonlashdi, hamda harbiy-texnik, savdo-iqtisodiy, siyosiy raqobat va qarama-qarshilik tusiga kirdi. Bir tomonning tashqi siyosiy qadamlari va harakatlariga ikkinchi tomon o'z manfaatlarini va xavfsizligiga tahdid sifatida qarardi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida socialistik yo'nalishdagi tartibotlarning o'rnatilishini, mustamlaka mamlakatlaridagi ozodlik harakatlarining SSSR tomonidan qo'llab-quvvatlanishini G'arb SSSRning Yevropa va butun dunyoda o'rnatilgan an'anaviy kuchlar nisbatini buzishga qaratilgan intilishi deb qabul qilardi.

Shu paytning o'zida, Amerikaning Fulton shahrida U. Cherrill tomonidan so'zlangan nutqi SSSR-da "Sovuq urush" -ning ochiqdan-ochiq e'lon qilinishi sifatida ko'rildi.

Atom quroliga AQShning vaqtinchalik monopoliyasi, 1947 yilning martida ilgari surilgan "Trumen doktrinasi", "Marshall rejasining" amalga oshirilishi SSSR va uning ittifoqchilari tomonidan ularning xavfsizligiga tahdid va Yevropa davlatlarining ichki ishlariga aralashish urinishlari deya qaralardi. SSSRda xalqaro munosabatlar to'g'risidagi tushunchalarning asosida urushdan keyingi dunyoning ikki qarama-qarshi lagerga - socialistik va imperialistik - bo'linib ketganligi haqidagi soddalashtirilgan tezisi yotardi. Bunday yondashuv turli ijtimoiy tuzumlarga ega davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning murosasizligini oldindan belgilab qo'ydi.

G'arb esa bloklar tuzish strategiyasi va SSSRni harbiy bazalar bilan o'rab olish siyosatini qo'lladi. 1949 yilda Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO) barpo etildi. Unga AQSH va "Marshall rejasi"da ishtirok etgan mamlakatlarning ko'pchiligi a'zo bo'lib kirdi.

50 - yillarda bloklar strategiyasi Osiyo va Tinch okeani havzasiga ham yoyildi. ANZYUS, SEATO, SENTO kabi tashkilotlar yuzaga keldi.

Bunga javoban SSSR, hamda Markaziy va Janubi - Sharqiy Yevropa mamlakatlari 1955 yil may oyida Varshava shahrida "Do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi" shartnomani imzolashdi. Shu tariqa "socialistik yo'nalishdagi" mamlakatlarning bloki rasmiylashtirildi.

60-yillarning boshida buyuk davlatlarning harbiy-siyosiy ittifoqlariga qo'shilmaslik harakati shakllandi. Qo'shilmaslik harakatiga 100 dan ortiq davlatlar qo'shildi. Harakat jahon siyosatining muhim omiliga aylandi.

Mafkuralashgan tusga ega harbiy-siyosiy ittifoqlarning barpo etilishi xalqaro munosabatlarning xarakteriga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Urushdan keyingi davrda ro'y bergan barcha yirik mintaqaviy nizolarda ikki murosasiz blok manfaatlarining bir-biroviga qarshi kurashi bo'lib o'tardi.

Aslini olganda xalqaro munosabatlarni zaharlab kelgan “sovuq urush” 80-yillarning ikkinchi yarmiga qadar davom etdi. G‘arb va Sharq o‘rtasidagi munosabatlar keskin holatda bo‘ldi. Ikki blok qarama-qarshiligi ba’zi hollarda xatarli darajaga yetib borardi. Bu esa insoniyatni yadroviy urush yoqasiga yetaklagan o‘ta xavfli xalqaro inqirozlarni keltirib chiqarardi. Shunday davrlar bo‘ldiki, keskinlik pasayib (70 – yillar), turli bloklarga mansub davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar yaxshilandi, qurollanish poygasini cheklashga qaratilgan o‘zaro maqbul shartnomalar va kelishuvlar imzolandi. Ammo ikki guruh rahbariyatining yaxshi o‘ylanmagan qadamlari oqibatida munosabatlar qaytadan buzilardi (70-yillarning ikkinchi yarmi - 80-yillarning birinchi yarmi) va dunyo xalqaro vaziyatning navbatdagi keskinlashuvini yana kuzatardi.

Xalqaro munosabatlar xarakterida tub burilish 80-yillarning ikkinchi yarmi - 90-yillarning boshida ro‘y berdi. SSSRda hokimiyat tepasiga yangi rahbarlarning kelishi sovet tashqi siyosatini “yangicha fikrlash” tamoyillari asosida keskin yangilash imkonini yaratdi.

Xavfsizlik umum qamrovli xarakterga ega bo‘lishi va birinchi galda siyosiy vositalar orqali ta’minlanishi lozimligi tan olindi.

“Umumevropa uyi”ni qurish g‘oyasi rivojlandi va keng jamoatchilik tomonidan qo‘llab - quvvatlandi.

Ushbu davrda AQSH va SSSR o‘rtasidagi munosabatlar yaxshilandi. Ikki tomon bir-biroviga dushman sifatida qarashni to‘xtatishdi. Sovet - amerika o‘zaro munosabatlarning yaxshilanishi natijasida yadroviy va oddiy qurollarni sezilarli darajada qisqartirish bo‘yicha bir qator muhim shartnomalar va bitimlar imzolandi.

Shu paytning o‘zida ko‘plab mintaqaviy mojarolar va xalqaro masalalarni tartibga solishga qaratilgan siyosiy qadamlar qo‘yildi. 1990 yilda Germaniyaning birlashishi Ikkinchi jahon urushi yakunlari tagiga so‘nggi chizig‘ni tortdi.

SSSR ning parchalanib ketishi va MDX ning (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi) tashkil topishi Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropa mamlakatlarida yangi tartibotlarning o‘rnatilishi, Varshava shartnomasi tashkilotining o‘zini o‘zi tarqatib yuborishi 90 - yillarda dunyodagi geosiyosiy vaziyatga taaluqli yirik o‘zgarishlarga olib keldi.

Shu bilan bir qatorda, xalqaro tushdagi yirik muammolar ham ko‘zga tashlandi: diniy mojarolarning yangi o‘chog‘lari paydo bo‘ldi, yadroviy qurolni nazorat qilish va tarqatmaslik masalasi yangi keskinlik kasb etdi, o‘tkir ekologik muammolar zo‘rayib ketdi, xalqaro jinoyatchilik va narkotik moddalarini tarqatishning o‘shishi katta tahlika uyg‘otmoqda, terrorchilik xalqaro hamjamiyatning eng dardli muammolaridan biriga aylandi.

Ushbu vaziyatda xalqaro hamjamiyatning harakatlarini birlashtirish va eng muhim xalqaro masalalarni hal etishda BMTning rolini kuchaytirish zaruriyati sezilmoqda.

Qachonlardir, balki, shunday bo‘lgandir. Biroq bugungi informasion jarayonlar sharoitida hayotning baynalmilallashuvi (internasionalizasiya) misli ko‘rilmagan darajalar kasb etmoqda. Informasion texnologiyalar mamlakatlar, xalqlar va odamlarni bir-biriga shunday yaqinlashtirib qo‘ydiki, bu xalqaro

munosabatlar mazmun-mohiyatini tubdan o'zgartirib yubordi. Shuning uchun ham, garchi davlat rahbarlari, ayrim tor ijtimoiy guruhlar, masalan, diplomatlar, xalqaro munosabatlarda yetakchi rol o'ynashda davom etayotgan bo'lsalar-da, oddiy fuqarolar ham ularda faol ishtirok etmoqdalar deyishga barcha asoslar bor. Ular har kuni chet ellarda tayyorlangan mahsulotlar va xizmatlardan foydalanadilar, xorijiy filmlarni ko'radilar, chet ellardan kelayotgan axborotlardan boxabar bo'ladilar va hkz.

Tashqi siyosat deganda har bir davlatning xalqaro munosabatlarda tutgan umumiy kursi tushuniladi. Tashqi siyosat ichki siyosat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har qanday davlat o'z ichki manfaatlari asosida tashqi siyosat yo'lini belgilaydi. Masalan, bir davlat tashqi dunyo bilan iqtisodiy, ikkinchisi siyosiy va iqtisodiy, uchinchisi madaniy va san'at, to'rtinchisi esa sport sohasida hamkorlik aloqalarini rivojlantiradi. Tashqi siyosat ushbu tanlangan kursni amalga oshirishdagi maqsad va vazifalarni hamda ularning hayotga tatbiq etish vositalari, shakl va usullarini belgilaydi.

Tashqi siyosatning asosiy vazifasi davlatning iqtisodiy – ijtimoiy taraqqiyoti, xavfsizligi hamda davlat va uning fuqarolari huquqi va manfaatlarini chet ellarda himoya qilishini ta'minlovchi muhitni barpo etishdir. Bunday muhitni vujudga keltirish uchun har bir davlat qo'shni va uzoqdagi davlatlar bilan aloqa o'rnatadi, munosabatda bo'ladi, hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga intilib, muzokaralar olib boradi va nihoyat u yoki bu masala bo'yicha muayyan kelishuvga erishadi. Davlatlar o'rtasidagi aynan ana shu aloqalar xalqaro – davlatlararo munosabatlar tushunchasini ifoda etadi. Xalqaro-davlatlararo munosabatlarni amalga oshirishda tashqi siyosat o'zining asosiy vositasi bo'lmish diplomatiyaga tayanadi.

Diplomatik xizmat davlat tizimi doirasida tashkil etilgan xizmat turlaridan biri bo'lib, u tashqi aloqa idorasining markaziy apparati, shuningdek, uning mamlakat ichidagi va xorijiy davlatlardagi ko'p sonli bo'limlaridan tashkil topgan. Diplomatik xizmatning asosiy vazifasi – diplomatiya zimmasiga yuklatilgan o'ta muhim va nozik vazifalarni, ya'ni chet davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan keng qamrovli, o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlari o'rnatish va ularni rivojlantirishdan iborat. Har bir davlatning diplomatik xizmati uning tarixiy tajribasi, an'analari, o'zida mavjud iqtisodiy, moliyaviy va kadrlar resursi asosida qo'yilgan vazifalarni bajarish yo'lidagi faoliyat usullari, vosita va yo'nalishlari hamda shakllarini belgilaydi.

Davlat diplomatik faoliyatining shakl va yo'nalishlari quyidagilardan iborat: diplomatik yozishma, davlat va hukumat rahbarlarining chet ellarga rasmiy safarlarini tayyorlash, muzokaralar olib borish, xalqaro shartnomalarni tayyorlash va imzolash, xalqaro konferensiyalarda qatnashish, xorijiy davlatlarda diplomatik

va konsullik vakolatxonalarini ochish va ularning faoliyatlarini muvofiqlashtirish, xalqaro tashkilotlar faoliyatida davlat vakillarining ishtiroki, muhim xalqaro masalalar bo'yicha davlat pozitsiyasini matbuotda e'lon qilish, xalqaro hujjatlarni rasmiy chop etish va hokazo. Hozirgi zamon diplomatiyasi F.De Kolyer, G.Nikolson, J.Kambon va boshqa olimlar, diplomatlarning ilmiy asarlarida tavsiya etilgan va tajribada sinalgan quyidagi usullarga tayanadi: to'g'rilik va rostgo'ylik, o'zaro ishonch va bir-birini hurmat qilish, xalqaro qonunlarga asoslangan holda ish yuritish, ilm, fan va texnika imkoniyatlari hamda tahliliy ma'lumotlar unumli foydalanish va hkz. Bugungi diplomatiya o'rta asrlarda amaliyotda keng qo'llangan makkorlik, aldanchilik, fitna uyushtirish, yolg'on xabar tarqatish va zo'ravonlik ishlatish kabi N.Makiavelli (Italiyada uyg'onish davrida yashab ijod etgan olim, yozuvchi va diplomat) tavsiya etgan usullarni mutlaqo rad etadi. Xalqaro tajriba va bir qator ilmiy kitoblarning tasdiqlashicha, o'z faoliyatida o'rta asr usullaridan foydalangan diplomatning qilmishi tez orada fosh bo'ladi va nojo'ya xatti-harakati bilan nafaqat o'ziga yoki elchixonasiga, balki o'z davlati obro'siga ham katta zarar yetkazadi. Yo'qotilgan ishonchni yana qaytadan tiklash esa xalqaro munosabatlarda juda og'ir kechadi.

Turli davlat idoralari ichida tashqi hamkorlik aloqalarini amalga oshiruvchi idoralar muhim o'rin egallaydi. Ular nafaqat o'z davlati hududida, balki xorijiy davlatlarda ham faoliyat yuritadi. Shu sababli joylashuviga qarab bu idoralar ichki va xorijiy guruhlariga bo'linadi. Davlatning ichki idoralari konstitusion va ixtisoslashtirilgan idoralarga bo'linadi.

Konstitusion tashqi munosabat organlariga davlat rahbarining idorasi, parlament va hukumat kiradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida Prezident, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi tashqi siyosiy organlari sifatida belgilangan. Tashqi aloqalarning maxsuslashtirilgan organlari guruhiga esa O'zbekistonda Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi kiradi. Ulardan birinchisi kundalik diplomatik munosabatlar bilan, ikkinchisi iqtisodiy va savdo aloqalari bilan shug'ullanadi.

Chet davlatlarda joylashgan tashqi aloqa organlari ikki guruhga bo'linadi: doimiy va vaqtinchalik faoliyat ko'rsatuvchi organlar. Birinchi guruhga chet ellardagi diplomatik va konsullik vakolatxonalar hamda xalqaro tashkilotlar qoshida tashkil etilgan vakolatxonalar kiradi. Ikkinchi guruhga vaqtinchalik faoliyat yurituvchi organlar guruhiga esa seremonial tadbirlar (chet davlat boshlig'ining o'z lavozimini egallashga bag'ishlangan tantana, yubiley yoki motam marosimlarida), xalqaro konferensiyalar, muzokaralar olib borish, xalqaro tashkilotlarning sessiyalarida qatnashish uchun yuboriladigan maxsus missiyalar kiradi.

Masalan, O‘zbekistonda bunday vazifalar quyidagicha taqsimlangan: Prezident davlat tashqi siyosatini belgilaydi, xorijiy davlatlarda o‘z davlati namoyandaligi vazifalarini ado etadi, chet davlatlar, xalqaro tashkilotlarga yuboriladigan O‘zbekiston elchilari hamda ularning vakillarini tayinlaydi va chaqirib oladi, chet ellik elchilardan ishonch yorliqlarini qabul qilib oladi. Prezident O‘zbekiston davlatining tashqi siyosatini amalga oshirish ishlariga umumiy rahbarlik qiladi, muzokaralar olib boradi va xalqaro shartnomalarga hamda ratifikasiya yorliqlarga imzo chekadi.

Parlament Oliy Majlisning davlat tashqi siyosati bilan bog‘liq qonunlarini qabul qiladi, urush va tinchlik masalalarini, hududiy o‘zgarishlarni hal qiladi, xalqaro shartnomalarni ratifikasiya qiladi va tashqi siyosiy tadbirlarni o‘tkazish uchun moliyaviy xarajatlarni belgilaydi. Xukumat va uning boshlig‘i davlatning tashqi siyosat kursini amalga oshiradi, davlat rahbari va parlament tasdig‘i uchun tashqi aloqalar bilan bog‘liq takliflarni kiritadi, xalqaro shartnomalarni bajarilishini tashkil etadi.

Uch idoraning o‘zaro muvofiqlashtirilgan faoliyati tashqi siyosat, xususan, diplomatiya sohasida yutuqlarga erishishda muhim o‘rin tutadi.

Nazorat savollari:

1. Diplomatiya tarixini asosiy bosqichlarini tavsiflab bering.
2. Diplomatiyaning amalga oshruvchi muayyan yo‘nalishlari va shakllarini bayon eting.
3. Xalqaro-siyosiy tadqiqotlarning mustaqil fan sifatida diplomatiyani boytish usullari qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Abdullayeva L.M. Osobennosti diplomaticheskogo protokola i etiketa. Tashkent. Iz-vo «Zar qalam», 2005.
2. Blishenko I.P. Diplomatiyeskoye pravo. –M.:Visshaya shkola. 1990.
3. Borunkov A.F. Diplomatiyeskoy protokol v Rossii i diplomatiyeskoy etiket. -M.:Iterpraks. 1993y.
4. Berridge G.R. Diplomacy. Theory and Practice. Third edition. –London: Palgrave. 2005
5. Venskaya Konvensiya «O diplomatiyeskix snosheniyax». 1961.
6. Vud DJ.,Serre J. Diplomatiyeskoy seremonial i protokol. –M.: Progress. 1976.
7. Verma R.C. Foreign policy of the great mughals. -Agra. India: Durga printing. 1967.
8. Dixit J.N. Across borders. -New Delhi: Pirus books. 1998.

9. Diplomaticheskiy slovar. 1-III t. -M.: Nauka. 1986.
10. Encyclopedia Americana. USA. Grolier incorporaion. 1993.
11. Rakitov A.I. Istoricheskoye poznanie: sistemno-gnoseologicheskiy podxod. -M., 1982.
12. Kissindjer G. Diplomatiya/ Per. s angl V.V.Lvova. – M.: Lodomir, 1997

4-mavzu: Sparta va Afina o'rtasidagi raqobat. "Antalkid" sulhi.

REJA:

- 4.1. Qadimgi Sparta diplomatiyasi.
- 4.2. Afina va Sparta polislari o'rtasidagi diplomatik munosabatlar
- 4.3. Polislar o'rtasidagi raqobat diplomatiyasi.

Tayanch iboralar: *Sparta polisi, Messeniya, gerussiya, gerontlar, Pelopones. Afina va Sparta o'rtasidagi harbiy yurishlar natijasi Egey dengizida savdo sivilizasiyasining rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlarni yaratib berishi lozim. Savdo bu iqtisod. Iqtisod uchun esa quyidagi uch omilni muhim deb bilishgan:*

Mil. av. VII asrning ikkinchi yarmida Peloponnes davlatlarining ichida Sparta alohida yetakchi sifatida ajralib chiqadi. Butun davlatga o'z nomini bergan Sparta shahri mil. av. XI yoki X asrda vujudga kelgan. Lakonikaga bostirib kirgan doriylar Frot vodiysining o'rta qismidagi hosildor yerlarga borib o'rtnashadilar. Mil. av. IX-VIII asrning birinchi yarmida spartaliklar qo'shni qabilalar bilan Lakonika ustidan hukmronlik qilish uchun shiddatli kurash olib bordilar. Oxir oqibat ular janubda

Arkadiya tog' yonbag'irlaridan Peleponnesning janubidagi Tenar va Maleya burnigacha bo'lgan bo'lgan yerlarni o'z hukmronligi ostida birlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Mahalliy aholining asosiy qismi (aftidan asosan axeylar) asoratga olinib, ilotlarga aylantiriladi. Lakonikaning eng hosildor yerlariga o'rnashib olgan spartaliklar o'z manfaatlari yo'lida siyosat olib bordilar. Tog' yonbag'irlaridagi kam hosilli yerlarni egallagan boshqa Lakonika jamoalari ko'ngilli ravishda Spartaning ustunligini tan olib, aholisi perieklar (atrofda yashovchilar) deb nomlangan Lakedemoniya davlati tarkibiga kirganlar. Ilotlardan farqli ravishda perieklar erkin ozod hisoblangan va hattoki yashagan polislari yoki polislardagi hududlarda fuqarolik huquqlardan ham foydalanganlar. Shu tariqa Sparta jamiyatida uchta tabaqa: to'la huquqli spartaliklar, qul qilingan ilotlar va erkin lekin to'la huquqli bo'lmagan perieklar shakllangan.

Xuddi shu davrda o'zining barqarorligi va ko'p asrlar davomida kam o'zgarganligi bilan ajralib turgan Spartaning davlatchilik asoslari yaratilgan. Bu o'ziga xos siyosiy tizimning muhim elementlari juft podsholik hokimiyati, oqsoqollar kengashi yoki gerusiya va xalq kengashi yoki apella hisoblangan. Qadimgi davrlardan Spartada bir vaqtning o'zida ba'zida o'zaro raqobatlashgan va dushmanlashgan ikkita podsho sulolasi hukmronlik qilgan. Kelib chiqishi Geraklning o'ziga borib taqaladigan podsholar hurmat va ehtiromga sazovor bo'lganlar. Biroq ularning hokimiyati qonun yo'li bilan chegaralab qo'yilgan. Harbiy vaqtlarda ular harbiy yo'l boshchilar vazifasini bajargan, tinchlik vaqtida esa sud va din ishlari bilan shug'ullanganlar. Ikkala podsho ham oqsoqollar kengashi tarkibiga kirgan bo'lib, (ular bilan 30 kishi bo'lgan) asosan davlat boshqaruvi masalalari hal qilinadigan yig'ilishlarda ishtirok etganlar. Butun to'la huquqli Sparta fuqarolarini qamrab olgan Xalq yig'ilishi bu davlat tizimida ikkinchi darajali rolni o'ynagan. O'zining mohiyatiga ko'ra u faqatgina podsholar va oqsoqollarning qo'shma yig'ilishida qabul qilingan qarorlarni tasdiqlagan, xolos.

Spartaning ilk tarixida Messeniya urushlari deb nomlangan davr alohida o'rin tutadi. Taxminan mil. av. VIII asrda boshqa yunon davlatlarida bo'lgani kabi hududda o'tkir yer yetishmovchiligi sodir bo'ladi. Bu muammoni hal qilish uchun

spartaliklar boshqa yunon polislari kabi kolonlashtirish siyosatini olib bormay, qo'shnilarining hududlari orqali erlari kengaytirishga kirishadilar. Sparta ekspansiyaning asosiy obekti Peleponnesning janubiy-g'arbidagi boy va keng viloyat- Messeniya bo'ldi.

Messeniya uchun kurash uzoq va mashaqqatli kechgan. Birinchi Messeniya urushi (mil. av. VIII asrning ikkinchi yarmi) 20 yil davom etdi va spartaliklarning g'alabasi bilan tugadi. Ular Messeniya aholisini yillik oladigan hosilining teng yarmini tovon sifatida to'lashga majbur qiladilar. Messeniya yerlarining bir qismi spartaliklar tomonidan o'zaro bo'lishib olinadi. Biroq, bu barcha yerga muhtojlarning ehtiyojini qondirish uchun yetarli bo'lmadi. Spartada fuqarolar o'rtasida nizolar va isyonlar boshlanadi.

Shu bilan birga messeniyaliklar spartaliklar hukmronligiga qarshi bosh ko'taradilar. Avvalgisidan kam davom etmagan yangi urush (mil. av. VII asrning ikkinchi yarmi) boshlanadi. Messeniyaliklarning mardligi va qahramonligi, shuningdek, Spartaning kuchayib ketayotganidan tashvishga tushgan ayrim Peleponnes davlatlarining yordamiga qaramasdan ular yana mag'lub etiladilar. Bu safar bir nechta periek mavqei berilgan dengizbo'yi shaharlari aholisini hisobga olmaganda aksariyat fuqarolar ilotlarga aylantiriladi va ularga tegishli yerlar spartaliklar ixtiyoriga o'tadi.

Hosildor Messeniya yerlarining egallanishi Sparta hukumatiga o'sib borayotgan agrar inqirozni to'xtatishga yordam beradi. Ikkinchi Messeniya urushidan so'ng chek yer egalari va to'la huquqli fuqarolar miqdori qat'iy tenglashtirish prinsipiga asoslangan yer egaligi tizimi vujudga keladi. Lakonika va Messeniya birmuncha hosildor yerlar daromad keltirishiga, ko'ra bir-biriga yaqinroq bo'lgan 9000 ulush (yer bo'lagi) ga bo'linadi va shunga mos ravishda spartaliklar o'rtasida taqsimlanadi. Keyinchalik Sparta hukumati alohida ulushlar har doim o'zgarishsiz qolishini (masalan uni meros sifatida bo'lib berish mumkin emas edi) diqqat bilan kuzatadi. Yerlar bilan birga bo'ysundirilgan Lakonika va Messeniya aholisi ilotlar sifatida ularga birlashtirilgan. Bunda har bir ulushga bir nechtadan ilot oilasi to'g'ri kelib, o'zining mehnati bilan ulushning xo'jayini va oilasini butun kerakli buyumlar

bilan ta'minlashi kerak edi. Har yili ilot o'zining xo'jayiniga arpa doni yoki un, vino, yog'i va boshqa mahsulotlar ko'rinishida obrok to'lagan. Odatda bu norma qonun bilan belgilanib (ba'zi ma'lumotlarga ko'ra u hosilning yarmini tashkil qilgan), spartalik o'z xohishiga ko'ra uni o'zgartirishi mumkin bo'lmagan. Obrokdan ortib qolgan qismini xohishiga qarab ishlatilish mumkin bo'lgan. Spartaliklar odatda ularning ishiga aralashmaganlar, ilotlar ham o'z vaqtida to'laganlar. Spartaliklar ilotlarni o'ldirish yoki sotish huquqiga ega bo'lmaganlar, Sparta qullar yer kabi davlat mulki hisoblangan. Shu bilan birga ilotlar o'zlarining yo'qotilgan ozodligini hech qachon unutmaganlar.

Sparta hududidagi arxeologik qazishmalar shuni ko'rsatadiki, mil. av. VII-VI asrning birinchi yarmida ushbu davlat butun Yunonistondagi eng sezilarli badiiy hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lgan. Bu davr Lakonika hunarmandlarining mahsulotlari Afina Korinf va Evbeya hunarmandlarining eng yaxshi buyumlaridan qolishmagan.

Mil. av. VI asrning ikkinchi yarmida Lakonika maktabi keskin inqirozga uchraydi va butunlay yo'qolib ketadi. Bu davrda chetdan Sparta o'zga yurt hunarmandlarining buyumlarini kirib kelishiga ham chek qo'yiladi. Shuningdek, katta ibodatxonalar va boshqa me'moriy inshootlar qurilishi ham to'xtatiladi. Ajablanarlisi, mil. av. VI asr Olimpiada o'yinlarida spartaliklar o'yin g'oliblarining deyarli yarmini tashkil qilgan bo'lsa ham, mazkur o'yinlardan qatnashishdan voz kechishadi. Shu tariqa Sparta uzoq vaqtgacha o'zini-o'zi yakkalab boshqa yunon polislari bilan xo'jalik va madaniy aloqalarni ongli ravishda uzadi.

Messeniya egalanganidan so'ng Sparta jamiyati ko'p minglab ilotlar jamoasi ustidan hukmronlik qiladigan professional jangchi-goplitlar toifasiga aylandi. Spartaning ko'pchiligini tashkil qiladigan ilotlar doimo spartalik bosqinchilarning hukmronligidan ozod bo'lishni o'ylar edilar. Ularni tizimli va shafqatsiz terror yordamida ushlab turishga urinishgan. Plutarxning ma'lumotlariga ko'ra, Sparta hukumati vaqti-vaqti bilan ilotlar qirg'inini uyushtirib turgan. Bunday turdagi operatsiyalar "kriptiya" (yunonchada "kriptos" – "yashirin", "sirli") deb nomlangan.

Doimiy ilotlar qo'zg'oloni xavfi Sparta hukmron tabaqasidan yuqori darajada birdamlikni va hamjihatlikni talab qilgan. Shuning uchun yer islohoti bilan birga Sparta qonun chiqaruvchisi Likurg tomonidan tarixga Likurg qonunlari nomi bilan kirgan bir qator muhim ijtimoiy islohotlar o'tkaziladi. Bu islohotlar Sparta davlati qiyofasini o'zgartirib, uni qat'iy tartib- intizomga bo'ysungan yagona harbiy lagerga aylantiradi. Spartada Likurg qonunlariga so'zsiz amal qilganlarga to'la huquqli fuqarolar hisoblangan. Ushbu qonunlarda Sparta fuqarolari amal qilish kerak bo'lgan ko'ylagining andozasidan tortib, soqol va mo'ylov shakli kabi eng mayda detallargacha belgilab qo'yilgan edi.

Qonun har bir spartalikka yetti yoshga to'lgan o'g'lini maxsus lager- agellarga (ma'nosi "poda") berish majburiyatini yuklagan. U yerda chidamlilik, kattalarga xurmat, ayyorlik, shafqatsizlik, buyruq bera olish qobiliyati va boshqa "haqiqiy spartalikka" xos bo'lgan sifatlar o'rgatilgan.

Bu kabi tartib-qoidalar Sparta davlatini mustahkam jamoaga aylantirib, o'ziga xos tarix sinovlariga bardosh berishiga olib kelgan. Masalan, mil. av. 464- yildagi buyuk ilotlar qo'zg'oloni yoki mil. av. 431-404- yillardagi Peleponnes urushlarida doimiy harbiy tayyorgarliklar o'z mevasini beradi. Mashhur Sparta falangasi (og'ir qurolangan piyodalar) uzoq vaqtgacha kurash maydonlarida engilmagan. Mil. av. VI asrning o'rtalaridayoq Sparta Peleponnes davlatlari o'rtasida gegemonlik o'rnatib, Peleponnes ittifoqiga asos solgan edi.

Keyinchalik spartaliklar boshqa yunon davlatlariga ham o'z ta'sirini yoyishga urindilar. Biroq, Spartaning buyuk davlatchilik uchun bo'lgan da'volari faqatgina harbiy kuchga aoslangan edi. U madaniy va iqtisodiy jihatdan boshqa yunon polislaridan ancha ortda qolgan. Siyosiy biqqlik va tashqi dunyoga dushmanona kayfiyat, demokratik qarashlardagi Yunonistonda unga qarshi noroziliklarni keltirib chiqargan edi.

Yunon shahar-davlatlarining gullashi davomiy bo'lib chiqmadi. Bu yunon-fors urushlaridagi g'alabalar va Peloponnes urushlari orasidagi qisqa mo'tadillik va ko'tarilish davri edi. Buning ustiga hatto o'sha davrda ham mo'tadillik nisbiy edi, ko'tarilish esa qulash tendensiyalariga to'la edi. Forslar bilan to'qnashuvda

yunonlarning ozod fuqarolar jamiyati forslar despotiyasidan ustun ekanligini ishonch bilan isbotlab berishdi. Shu bilan birga yunon-fors urushlari xo'jalikning kuchli quldorlik shakllarini rivojlantirgan holda fuqaroviy jamoalarda ijtimoiy va egalik manfaatlarini o'sishiga yordam bergan. Shuningdek, ular umumiy ozodlikning qudratli himoyachilari bo'lgan Afina va Spartani oldingi qatorlarga olib chiqdi. Qadimgi Yunonistonda, aslida shahar davlatlar orasida asosan ikki qarama-qarshi kuch mavjud bo'lgan. Bir tomonda Sparta Janubiy Yunonistonning katta qismlari bo'yicha konservativ polislarni birlashtirgan holda mil.av. VI asrdayoq Peloponnes ligasining tashkilotchisiga aylangan edi. Boshqa tomonda keyingi yuz yillikdagi yirik birlashma – Delos, yoki savdo aloqalari jihatida umumiydashgan dengizbo'yi va orol polislarning katta qismini birlashtirgan va forslarga qarshi kurashda o'sha kuchlarni birlashtirishni ko'zlagan Afina dengiz ittifoqini mavqei ortib borardi. Peloponnes ligasining yadrosi konservativ, agrar tipga mansub bo'lgan, asosan savdo-iqtisodiy aloqalarga moslashgan doriylar jamoalari edi. Har jamoa o'z sardorining tashabbusiga bo'ysungan holda ta'sir doirasini saqlab qolish va kengaytirishga intilgan va raqobatchi guruhlar muvaffaqiyatlarini obdon kuzatib borgan. Ikki ittifoq o'rtasidagi bu raqobat- o'z o'rnida mil. av. V asrda Yunoniston jamiyatida shunday siyosiy qarama-qarshilikka aylanganki, u umumiy katta ichki mojaroni, Peloponnes urushi (mil.av. 431-404-yy)ni keltirib chiqargan. Bunda birinchi o'rinda, Afina tashabbuskor tomon sifatida namoyon bo'ladi. Tez rivojlanib borayotgan iqtisodiyot va unga asoslangan ijtimoiy harakatlarga bo'lgan ehtiyoj afinaliklarni o'z ta'sir doirasini, hududini kengaytirishga, xom-ashyo va resurslarini ko'paytirishga undagan. Afina bilan dengizda raqobatini olib borgan doriylarning savdo shaharlari, eng avvalo, Megara va Korinf, shuningdek butunlikni saqlab qolish g'amidagi katta yer egalarining barchalari Spartaга murojaat qilishardi. O'z navbatida Sparta ham Peloponnes ligasida siyosiy yaxlitlikni saqlab qolishni xohlardi. Afinaning V asrning 50-yillarida Istma va O'rta Yunonistonda o'z kuchini o'rnatishga bo'lgan harakatlari oxir oqibat uning Sparta bilan qurolli to'qnashuviga olib keldi. Bu birinchi yoki kichik Peloponnes urushi nomini olgan harbiy to'qnashuvlar (mil. av. 457–446-yy.) o'ziga xos kuchlarni sinash voqeasi bo'ldi. U ikki tomonga ham muvaffaqiyat

keltirmadi; shunchaki navbatdagi urushga tayyorgarlik vazifasini o'tovchi qisqa vaqt bo'lgan "O'ttiz yillik" tinchlik sulhi bilan tugadi.

Urushning sababi Afina va Sparta o'rtasida Yunonistonda gegemonlik qilish uchun olib borilgan kurash hisoblanadi. Shuningdek, boshqa tomondan Korinf va Megara o'rtasidagi savdo raqobatlari dastlabki mojarolarni keltirib chiqargan edi. Peloponnes urushining asosiy natijasi Afinaning Sparta bilan uzoq kurashidan so'ng batamom mag'lubiyatga uchragani bo'ldi. Afinaliklar mag'lubiyatining ko'plab sabablari bor edi. Avvalo, Afinaning siyosati uning ittifoqdoshlarida norozilik uyg'otdi. Afinaning qudratli paytida ittifoqdoshlar foyda ko'rar edi, biroq yetakchining kuchi va irodasi sustlasha boshlaganda, ittifoq tarqaldi. Afina mag'lubiyatining boshqa sababi urush rejasining nobopligi edi: dengiz jangi bilan Spartadek kontinental davlatni qulatib bo'lmasdi. Afinaning qishloq xo'jaligi hududlari bilan aloqalarning uzilishi og'ir oqibatlariga olib keldi. Bundan tashqari afinaliklarda mustahkam boshqaruv yo'qolgan edi, operatsiyalarni amalga oshirishda noma'qulchiliklar ham bor edi. Bunga Sitsiliyaga uyushtirilgan ekspeditsiya misol bo'la oladi. U barbod bo'lgan edi. Va nihoyat, Afinaning mag'lubiyatiga Spartaliklarga forslarning moliyaviy yordam ko'rsatgani o'z ta'sirini o'tkazgan. Bu yordam spartaliklarga qudratli flot tuzib, afinaliklar eng kuchli bo'lgan joyda – dengizda – ularni mag'lub qilish imkonini bergandi. Xo'sh, spartaliklarning g'alabasi yunon polislariga nima olib keldi? Sparta urushni ellin ozodligini afinaliklar zulmidan qutqarish shiori ostida olib borgan. Ammo, Spartani qo'llab-quvvatlash va uning tarafida bo'lish bilan yunonlar aytarli hech nimaga erishishmadi. Afina gegemonligi o'rniga Spartaniki keldi, xolos. Natijada Afinada demokratlar va oligarxlar qator kurashlar bo'lib o'tdi.

Nihoyat, Afinada mil. av. 403-yilning kuzida demokratiya qayta tiklandi. Biroq, bu urushdan oldin Afinada hukm surgan o'sha buyuk demokratiyaning soyasi edi, xolos. Umuman olganda, yunonlar uchun Peloponnes urushining mohiyati salbiy bo'ldi. Yangi tinchlik va yangi boshqaruv tizimi avvalgidek mustahkam emasdi va tez orada ellinlar yangi ichki nizolar, kelishmovchiliklar ichida qoldilar. Urush fuqaroviy jamoalar o'rtasida kelishmovchilikning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. U

kambag'allar va boylar, shahar demosi va qishloq xo'jaligi aristokratlari, demokratlar va oligarxlar o'rtasidagi munosabatlarni yanada keskinlashtirdi..

Polis tuzumining inqirozi

Miloddan avvalgi V asr so'nggida yunon polislari uzoq davom etgan tushkunlik pallasiga kirdi. Fuqarolarning yopiq jamoasiga asoslangan yunon polislariida endilikda yer mulkchilik munosabatlarida keskin o'zgarishlar sodir bo'ladi. Yerga ishlov berishdan keladigan daromaddan ko'ra sudxo'rlikdan olinadigan foyda o'sib ketdi. Yerni sotish keng tarqaldi. Katta yer maydonlari ayrim fuqarolar qo'lga o'tib qoldi. Kambag'allashgan, yeridan ajragan fuqarolar o'z fuqarolik majburiyatini bajarmay qo'ydilar.

Mil.av.V asrda boylik ayrim xususiy kishilar qo'lida to'plandi va ular o'zlarining fuqarolik majburiyatini bajarishdan bo'yin tovlay boshladi. Ularning ko'pchiligi o'z mablag'larini dengiz savdosiga qo'yib, o'z polislariidan boshqa hududlarda katta -katta yer maydonlariga egalik qila boshladilar. Endi ma'lum bir polis fuqarosi bo'lish ahamiyatga ega bo'lmay qoldi. Bu davrda yunon polislariida davlat xo'jaligining mavjud emasligi hukumat g'aznasiga daromad tushmasligi olib keladi. Polislarning moliyaviy qiyinchiliklari uzluksiz urushlar, yollanma qo'shinlarning keng tarqalishi hamda harbiy ehtiyojlarga xarajatlarning muntazam ravishda o'sib borishi bilan qiyinlashdi.

Demokratik polislarda lavozimlarga haq to'lash, kambag'al fuqarolarga muntazam nafaqa berish tizimi bu qiyinchiliklarni yanada chuqurlashtirdi.

Avvallari Afina o'z xarajatlarini ittifoqchilar hisobidan to'ldirgan bo'lsa, mil.av.IV asrga kelib mulkdan olinadigan favqulodda soliq- **eysfora** bilan qoplay boshladi.

Mil. av. V asr so'nggida meteklar va chet elliklarga alohida xizmatlari uchun polis hududida yer va uylarga egalik qilish hollari tarqaldi.

Polis tushkunligi yollanma askarlarning tarqalishida ham ko'rindi. Chunki, yer mulkidan ajrab, qarzga botib, kambag'allashib qolgan fuqaro qurol- yarog' olishga mablag'i yo'q edi. Endi u begonalar manfaati uchun jang qilishni xohlamas edi.

Yunon polislarning tushkunligi quldorlik tizimining inqirozi emas edi, chunki qulchilik yanada rivojlandi.

Mil. av. IV asrda polislar tizimida turli ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi ziddiyatlar kuchaydi.

Biror bir polis qandaydir mustahkam birlashuvni tashkil qilish va ungarahbarlik qilish qobiliyatiga ega emas edi. Yunon polislari endilikda iqtisodiy-siyosiy jihatdan to'liq inqirozga yuz tutgan edi.

Nazorat savollari:

1. Qadimgi Sparta polisi xaqida nimalarni bilasiz?
2. Pelopones urushining mohiyatini tushuntiring?
3. Afina va Sparta o'rtasidagi diplomatik konfliktni asosi..?
4. Afina dengiz ittifoqining parchalanishi sabablarini izoxlab bering?

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Bogaturov A.D., Averkov V.V. Istoriya mejdunarodnix otnosheniy. 1945-2008. M., 2010.
2. Bokshanin A.G. Istoriya mejdunarodnix otnosheniy i diplomatii v drevnem mire. M. 1948.
3. Istoriya mejdunarodnix otnosheniy. Osnovniye etapi s drevnosti do nashix dney. – M., Logos, 2007. / pod red. G.V.Kamenskoy, O.A.Kolobova, E.G.Solovyeva.
4. Black Jeremy. A History of Diplomacy. Reaktion Books, 2010.

5-mavzu: Korinf kongressi. Aleksandr Makedonskiyning yurishlari.

REJA:

- 5.1. *Makedoniyaning yuksalishi.*
- 5.2. *Afina va Makedoniyaning diplomatik munosabatlari*
- 5.3. *Aleksandr Makedonskiyning tashqi siyosati.*
- 5.4. *Ellinizm.*

Tayanch iboralar: *Filipp II tuzgan “falanga”, polislar o‘rtasidagi kurash, Afina va Makedoniya munosabatlari. Aleksandr Makedonskiyning Kichik Osiyo va Misrga yurishi, Mesopotamiya va Eronidagi zafarlar. Bobil poytaxt. Diodoxlar va ellin dunyosi.*

Filipp II ning Yunonistonda mavqeyini ortib borishi, doimiy ichki ishlarga aralashuvi Afinani ehtiyot bo‘lishga undaydi. Makedoniya armiyasini o‘rta Yunonistonga kirib borishini to‘xtatish uchun Fermopilyo‘lini egallab oladi va Filippni Fessaliyaga kirib borishini to‘stib qo‘yadi. Makedoniyaliklarni O‘rta Yunonistonga yurishi omadsiz tugagandan so‘ng ular yana janubiy Frakiya hududlarini bosib olishni boshlaydi. Kuchli tayyorgarlikdan keyin Xalkidika ittifoqi markazi bo‘lgan Olimp shahriga hujum qiladi. Afinaliklar Olimpga yordam berish uchun unga 17 triera 300 otliq va 400 goplit jo‘natadi. Lekin Filipp yordam kelgunga qadar shahar taqdirini halqiladi.

Yunonlarning eng katta shaharlaridan biri bo‘lgan Olimp vayron qilinadi va aholisi shaharni tark etadi (mil.av.348-y.). Xalkidika ittifoqi tarqatib yuboriladi.

Filipp II yana Vatan urushiga aralashishni boshlaydi. Afina esa Xalkidika va janubiy Frakiyadagi yo‘qotishlardan keyin bu tarafdagi o‘z hududlarini saqlab qolish maqsadida Filipp II bilan sulh tuzadi. (Bu sulh mil.av.346-yilda Filokrad sulhi nomi bilan tarixga kirgan). Filipp II Afina bilan urushni to‘xtatgandan keyin markaziy Yunoniston ishlariga aralasha boshladi. U Fivani taklifini qabul qilib o‘zining armiyasini Fakidiya hududlariga olib kiradi. Filipp II o‘zining bor e‘tiborini Fakidiya

va Fermopil yaqinidagi muhim strategik punktlarini nazorat qilishga qaratadi. Mil. av. 346-yil qariyb o'n yil davom etgan Vatan urushi nihoyasiga yetadi. Bu urush bir tarafdin yunon polislarning kuchsizlanishiga olib kelgan bo'lsa, Makedoniya davlatining siyosiy hokimiyatini yanada kuchaytirdi.

Korinf Kongressi. Mil. av. 337-yil Filipp II tashabbusi bilan Korinfda umumiyunon kongressi chaqirildi. Bu yo'l kongressda Yunonistondagi Makedoniya gegemonligini huquqiy jihatdan

mustahkamlash va yunonlarni Makedon podshosi qo'li ostida birlashtirish edi. Kongressda yunon xalqlarining Ellin ittifoqi tuzildi, Filipp II esa gegemon sifatida e'lon qilindi. Filipp II harbiy qo'shin oliy bosh qo'mondoni bo'ldi va tashqi siyosat boshqaruvini ham o'z qo'liga oldi. Barcha yunon urushlari to'xtatildi va Yunonistonda umumiy tinchlik o'rnatildi. Bir-birining ichki ishlariga aralashish ta'qiqlandi va siyosiy tuzilishni o'zgartirish man qilindi. Qaroqchilarga qarshi urush e'lon qilindi. Dengizlarda savdo-sotiq maqsadida suzuvchilarni ozodligi mustahkamlandi. Filipp II mil. av. 336-yilda Kichik Osiyoga yurish arafasida o'z xizmatkori tomonidan o'ldiriladi. Makedoniyalik podshoning vorisi sifatida uning o'g'li Aleksandr taxtga o'tiradi. Uning ismi bilan yunon tarixida ellinizm yangi davrga o'tadi.

Aleksandr Makedonskiy imperiyasi.

Filipp II imperiyani boshqara turib Makedoniyani Dunay daryosidan markaziy Yunonistongacha cho'zilgan hududda yetakchi harbiy mamlakatga aylantirdi. Uning o'limi Osiyoga rejalashtirilgan hujumlar va barcha yutuqlarni xavf ostiga qo'ydi. Aleksandr III miloddan avvalgi 336 yilda otasi o'lgan vaqtda 20 yoshda edi. Bashoratchilar keyinroq uning hukmronligi haqida aytgan edilar. Garchi Filippni bir nechta xotinlaridan merosxo'rlari bo'lsa ham, Aleksandrga Filippning butun hokimiyati merosxo'ri sifatida qaraganlar va uning kelajagi uchun qattiq qayg'urganlar. Aristotel bilan birga bir nechta yunon ustozlari yunon adabiyoti va madaniyatidan ta'lim bergan. Aleksandr ulardan bir umrlik Gomeriga muhabbatni va afsonaviy ajdodlari Axill va Geraklning qahramonliklariga tenglashish yoki o'tib ketish maqsadini oldi.

Aleksandrda, shuningdek, Filipp yo‘q paytida davlatni boshqarish bo‘yicha amaliy tajriba bor edi va Frakiya qo‘zg‘olonini bostirgan edi. U hattoki miloddan avvalgi 338 yildagi Xeroneya jangida otliq qo‘shinlariga qo‘mondonlik qilgan edi. Shunday bo‘lsada uning davomchiligini hem kim kafolatlamagan edi. Filippning eng keksa qo‘mondoni Antipeyter Aleksandrni xavf-xatarlardan qutqarib hukmronlik ramzi bo‘lgan Egey dengizidagi makedon qo‘shinlarini unga taqdim qildi.

Aleksandrning shaxsiy mavqeyi imperiyaning dastlabki inqirozli yilida unchalik mustahkam emas edi. Bunga Filippning ba‘zi amaldorlari Yunonistonni qo‘ldan berish xavfi tufayli Makedoniyaning shimoliy o‘lkalarini mustaqil qilishga bo‘lgan harakatlari sabab bo‘ldi.

Yunoniston Aleksandrning e‘tiborini tortdi. Filippning dafn marosimi tugashi bilanoq, Aleksandr Filippning o‘chini olish uchun o‘zini mustaqil deb e‘lon qilgan Yunonistonning asosiy polislari Afina va Fivaga yurish qilishga qaror qildi. Aleksandr Makedoniyaning Fessaliya va Korinf Ligalaridagi gegemonligini tasdiqladi. Yunonistondan qaytgan Aleksandr mil. av. 335-yil bahorida Filipp o‘limidan keyin Makedoniya asoratidan qulutishga harakat qilgan Tirakiya va Illiriyaga qarshi yurish qildi.

Aleksandr harbiy harakatlarni Danube daryosining shimoligacha uzaytirdi. Filipp II ning mil. av. 339-yil Skutiya’dagi g‘alabasidan keyin kamsitilgan Triballi Aleksandrda xotinlari va bolalari bilan yashayotgan orolga omonlik so‘raydi. Qolgan Tirakiya qabilalari Geta va Danube orasida qolishga majbur bo‘lishdi.

Kichik Osiyoning istilo etilishi. Makedoniya mustahkamlangach, Aleksandr mil. av. 334-yilning bahorida Osiyoga yurish boshladi. Uning armiyasi to‘liq 37.000 kishi edi, bundan Makedoniya falanga piyodalari 12.000 nafar, qo‘shimcha 3.000 kishilik „qirol gvardiyasi“ va 1800 kishilik otliq askarlar edi. Bundan tashqari, Illiriya va Tihrasaning 9.000 ga yaqin yunon piyoda va otliq askarlari ham mavjud edi. Qo‘shinlarning transport vositasi bo‘lib 200 ta yunon kemalari xizmat qiladi.

Aleksandrning Osiyodagi dastlabki harakatlari xuddi teatr sahnasidagiday bo‘ldi. U Osiyo tuprog‘iga qadam qo‘ygan ilk Makedoniya podshosi bo‘ldi.

Keyinchalik Aleksandr Troya shahriga bordi, afsonaviy Troya shohi Triamdan Afinani bosib olgani uchun kechirim so‘radi va ajdodi Axillesga xurmat ko‘rsatdi.

Granik jangi (mil.av.334-yil) Forslar Aleksandrni dastlab hozirgi Turkiya hududida kutib olishdi. Ilk to‘qnashuv Granik daryosi, hozirgi Ko‘chabosh bo‘yida, Anatoliyaning shimoli-g‘arbida bo‘ldi. Bu davrda forslar tomonida yunon yollanma askarlari ham bo‘lgan. Jangda Aleksandr Troyadan Afinaga keltirilgan zirhda tushdi. “Axilles zirhi”deb nom olgan bu zirh forslarni sarosimaga soldi. Jangda Aleksandr yaralanib, uning hayotini hamshirasining akasi Klit qutqarib qoldi. Jangda Aleksandr 2.000 nafar vatan xoinini qatl ettirdi, tirik qolganlarini Makedoniyagacha bo‘yinlarida zanjir bilan olib bordi.

Aleksandr askarlari Anatoliyaning janubi bo‘ylab g‘arbga harakat qila boshladi va fors satrapliklari Lidiya, Kariava Lusiani egalladi. Mil.av. 333-yil bahorigacha Aleksandr hozirgi Anatoliya markazi Anqara, o‘sha paytdagi Frigiya poytaxti Gordiumga yetib bordi.

Kichik Osiyodagi mag‘lubiyatlardan keyin Doros III qo‘shinga iste‘dodli sarkarda Memnonni qo‘mondon qilib tayinlaydi. Memnon Milet shahrini mustahkam qilishga harakat qiladi, lekin tasodifiy halokat tufayli vafot etadi. Aleksandr ixtiyorida otliq va piyoda qo‘shinlardan tashqari, harbiy flot ham bo‘lganligi va qamal dengizdan ham amalga oshirilganligi hisobiga Milet shahri egallandi. Endi Aleksandr Kichik Osiyoning ichiga qarab-Kappadokiyaga qarab harakat boshladi. Bu yerlarda yashovchi mahalliy qabila va elatlar Eron hokimiyati ostida bo‘lsalar ham, mustaqillikka intilar va eron zulmidan aziyat chekar edilar. Shu tufayli ular Aleksandr va Makedoniya armiyasini xursandchilik bilan kutib oldilar.

Iss jangi (mil. av. 333-yil). Kichik Osiyo yarimorolida, O‘rtayer dengizi shimoli-sharqiy qirg‘og‘idagi Iss shahri yaqinida Fors podshosi Doros III va Makedoniya podshosi Aleksandr o‘rtasida dastlabki yirik jang bo‘lib o‘tdi. Doros III taktikasiga ko‘ra, podsho otryadi va eng yaxshi harbiy tuzilmalar qo‘shin markazida joylashgan edi. Eron armiyasida chap qanot ham kuchli bo‘lgan. Jang davomida forslar Filippning yaqin do‘sti Parmenion boshchilik qilayotgan Makedoniya

armiyasining o'ng qanotini qisib qo'ydilar. Natijada, Aleksandr yordamga yetib keldi va forslarning rejasini barbod qildi.

Aleksandr fors qo'shinlari markaziga nisbatan kuchli bo'lgan otliq qo'shinlarini yuboradi. Jang maydoni noqulay bo'lganligi sababli forslar butun boshli qo'shinni ishga sola olmaydilar. Jang og'ir bo'ldi va yakunda Eron qo'shini tor-mor keltirildi. Aleksandr shohning barcha aravalarini egalladi, ularning orasida Doro III ning oilasi ham bor edi.

Iss jangidan keyin forslar qarshiligini yetarli miqdorda yenggan Aleksandr Suriya va Finikiya tomon yo'l oldi. Lekin, bu hududda Tir shahrigina ma'lum vaqt qarshilikni ko'rsatdi. Qattiq qamal bo'lganiga qaramasdan Aleksandr Tir shahrini egalladi va shaharni vayron etdi, 30.000 ga yaqin shahar aholisi qul qilib sotibyuborildi.

Aleksandr Makedonskiy Misrda. Aleksandr yurishni Finikiyadan janubga qarab davom ettiradi. Mil.av.332-yilda Aleksandr Misrga yurish qildi. Misrliklar Makedon qo'shinlarini xursandchilik bilan kutib oldilar. Misrdagi Eron satrapi Aleksandrga qarshilik ko'rsatish o'rniga unga xayrixohlik bildirdi va kohinlar bilan birga Aleksandrni kutib olgani chiqdi. Misrliklar Eron asoratidan qutulganlariga xursand edilar. Ularning xursand bo'lishiga yana bir sabab Aleksandrning Misr xudolariga qurbonlik qilish haqida buyruq berganligi va Misr kohinlaridan bu diniy rusum qanday bajarilishi haqida so'rganligi bo'ldi. Nafaqat oddiy Misrahli, balki, zodagonlar va kohinlar ham yosh Aleksandrning Misr dini va urf-odatlariga muhabbatini ko'rib xursand bo'lganlar. Kohinlar Aleksandrni fir'avn deb e'lon qildilar va o'z-o'zidan Aleksandr quyosh xudosi Amon-Raning o'g'liga aylandi. Mil. av. 332-yilda Aleksandr Nil daryosi quyilish joyidagi deltada Aleksandriya shahrini qurdirdi. Bu shahar keyinchalik shakllangan ellinistik dunyoning eng ravnaq topgan shahriga aylandi.

Aleksandriyadan Persepolisgacha: Osiyonings hohi (mil. av. 331-330yy). Aleksandriyada qisqa vaqt to'xtagan Aleksandr Misrni tark etdi va Doro III bilan qat'iy yuzlashishga yo'l izladi. Doro III unga jang oldidan o'zining to'ng'ich qiziga

uylanishni va Frot daryosidan g'arbdagi barcha yerlarni olishi va oilasining barcha a'zolarini katta pul evaziga qutqarib qolishni taklif qildi.

Parmenion Aleksandrga Doro III ning taklifini qabul qilish kerakligini aytdi. Biroq, Aleksandr unga rad javobini berdi va „Men Parmenion bo'lganimda rozi bo'lardim, lekin unday emas” deb javob berdi. Aleksandrdan rad javobini olgan Doro III shoshma-shosharlik bilan makedoniyaliklarga qarshi qo'shin to'pladi. Ikki o'rtadagi hal qiluvchi jang mil.av. 331-yil 1-oktabr kuni shimoli-sharqiy Iroqdagi Gavgamel qishlog'ida bo'ldi. DoroIII boshliq forslarning mag'lub bo'lishi tufayli bu jang yunon tarixidagi eng yaxshi ta'riflangan jang bo'ldi.

Gavgamel jangi (mil. av. 331-yil). Iss jangida mag'lub bo'lganidan keyingi yillar davomida Doro III armiyasiga askarlarni ehtiyotkorlik bilan tanladi. Yangi armiyaning otliq qo'shini ayniqsa kuchli edi. Lekin, piyoda askarlarning oldingi qatori kuchsiz edi. Doro III Gavgamel jangida qo'llagan rejasi bo'yicha otliq qo'shinlar Aleksandr qo'shinlarini o'rab olishga umidqildi. Doroning ehtiyotkorlik bilan qilgan tadbirlariga qaramasdan Gavgamel jangi natijasi ham Issga o'xshash bo'ldi. Jangda Aleksandr otliq qo'shini Fors armiyasining markaziga hujum qildi. Doro III jang maydonini tark etdi va Eronning sharqi tomon qochadi. Aleksandr Doro III ni asirga ololmagan bo'lsa-da, Fors imperiyasining markazini egalladi. Doro III ning omon qolgan askarlari Aleksandrni Osiyoning shohi deb olqishlashdi. Aleksandr Bobil, Suza va Persepolni egalladi. Bular Aleksandr uchun berilgan uch ulkan in'om bo'ldi. Aleksandr Bobilga mil.av. 331-yil oktabr oyi o'rtalarida tantana bilan kirib keldi. Misrdagidek, Aleksandr ruhoniylarni tinchlantirish yo'lini qidirdi, Bobilning bosh xudosi Marduqqa qurbonlik qilishni taklif qildi va forslklar deyarli bir asr oldin qo'zg'olonchilarni jazolash uchun buzgan ibodatxonasini qaytadan qurish to'g'risida buyruq berdi. Aleksandr taslim bo'lgan va uning tomoniga o'tgan Suza va Bobil satraplarini mukofotlaydi. Lekin, Persepol shahri va aholisining ahvoli boshqacha bo'ldi.

Persepolning vayron etilishi. Persepol Fors imperiyasining markazi bo'lib, forslarning ommaviy tadbirlari va yangi yil bayramlari, shuningdek, soliq topshirishga oid diniy marosimlari ham shu yerda o'tkazilgan. Bu yerda Doro I

hukmronligi davrida yunon elchilari kamsitilgan edi. Persepol yunonlarga va boshqa xalqlarga forslar hukmronligini ko'rsatishi kerak edi, shuningdek, boshqa insonlarga bu qo'rquvni tarqatishi kerak bo'lgan. Aleksandr bu ishlarni mil.av.Vasrda yunon-fors urushlarida vayron etilgan shaharlar uchun o'ch olish maqsadida tanladi. Mil.av.330-yil aprelida Persepolni tark etishdan oldin makedoniyaliklar shahardagi saroylarga o't qo'ydilar.

Harbiy bo'lmagan ko'pchilik aholi xususan, ayollar, bolalar va barcha xohlovchilar armiyaga qo'shilishdi. Aytishlaricha, shirakayf ahvolda bo'lgan afinalik Tais Aleksandrga mil.av.480-yil forslar tomonidan vayron etilgan Afina uchun qasos olish maqsadida Persepolni yondirishni taklif qildi, Persepolni yondirishga askarlarni ruhlantirdi, lekin Aleksandr shaharni butunlay zabt etish va vayron qilishga qaror qildi. Taslim bo'lganiga qaramasdan, Persepolning taqdiri Fiva va Tirga o'xshash bo'ldi. XX asrda amerikalik arxeologlar Persepolni qazib topishdi. Qazishmalar shuningdek, bu yerdagi saroylar xazinalarga boy bo'lgani, ular Fors imperiyasi hukmronligi davrida ikki asr davomida to'plangani va haqiqatan yong'in natijasida vayron bo'lganini ko'rsatdi. Persepolning yondirilishi bilan Aleksandr yunon yurishlarining oxiri g'alaba bilan tugaganiga ishoraberdi.

Hindistonga uzoq yo'l: Aleksandr O'rta Osiyoda. Aleksandr Persepolning yonishini kuzatar ekan, oldinda uni to'rt yillik mashaqqatli yurishlar kutayotganini bilmagan edi. Birinchidan, uning omadli taqdiri chegarasi davom etayotgandek tuyulardi. Doro III Midiyadan sharqqa tomon qochdi. Aleksandr Ekbatanni va Doro III ning xazinalarini to'laligicha egalladi. Fors va Midiya xavfsiz bo'lgach, Aleksandr Doro III ning yunon askarlarini ozod qildi. Bularning barchasi Doro III ni asirga olish va Ahmoniyar sulolasini tugatish uchun qaratilgan edi.

Doroning o'limi (mil.av.330-yil). Aleksandr Doro III Baqtriyaga, hozirgi Afg'onistonga, yetib olmasidan avval xalaqit qilishga umid qildi va uni ta'qib etishni davom ettirdi. Biroq, sharqiy satrapliklardagi siyosiy to'da boshlig'I Baqtriya satrapi Bess tomonidan mil.av.330-yilda Doro III o'ldirildi. Afsuski, Bess Baqtriyaga qochdi va u yerda Artakserks IV nomi bilan Fors taxtiga o'tirdi.

Doroning o'limidan Aleksandr Makedoniya va Eronni birlashtirish uchun o'ziga xos belgi sifatida foydalanmoqchi bo'ldi. Doroning jasadi Eronga qaytarildi va shohona e'tibor bilan yondirildi. Shundan keyin, "Aleksandr Doroning qasdini oldi", degan mish-mish tarqaldi.

